

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*  
*UDK 9(575.1):351*

**BOBOXOLOV G'AYRAT TOSHBOTIROVICH**

**Mustaqillik yillarida O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati  
organlarining shakllanishi**

**5A120301- O'zbekiston tarixi**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertasiya**

**Ilmiy rahbar:  
Dos.Nasrullayev M.I**

**Samarqand – 2013**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3-10
<b>1-bob Mahalliy davlat hokimiyati organlarining shakllanishi va rivojlanishi.</b>	
1. O'zbekiston mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqiy asosining yaratilishi va hokimlik institutining tashkil etilishi.....	11-22
2. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining shakllantirilishi va ularning demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishdagi roli.....	23-40
<b>2-bob. Samarqand viloyati mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati.</b>	
1. Viloyat mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududiy ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga qilgan rahbarligi.....	41-63
2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari va aholi orasidagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat.....	64-72
<b>Xulosa</b> .....	<b>73-77</b>
<b>Adabiyotlar ro'yxati</b> .....	<b>78-80</b>

**Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;** O'zbekiston o'zining yigirma ikki yillik mustaqil taraqqiyoti mobaynida mamlakatda demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida davlat va jamiyat qurilishi sohasida izchillik bilan uzluksiz islohotlar olib bormoqda. Demokratik islohotlar yanada chuqurlashgan hozirgi bosqichda ijtimoiy fanlar oldida davlat qurilishi sohasida, hususan mahalliy davlat hokimiyati organlariga ham oid tegishli yangi vazifalar yuzaga kelmoqda. Zero, ularni yechimini topmasdan turib turib demokratiya yo'lida samarali ilgari bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Biz jamiyatimizdagi demokratik jarayonlar yo'li - kelajak taraqqiyotimiz haqida fikr yuritish ekanmiz, bu borada bizda kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish g'oyasi, bu g'oyaning ma'no-mazmuni isbotlab, asoslab berilgani haqida eslatib o'tmoqchiman. Hozirgi kunda mana shu yo'lni ham nazariy, ham amaliy jihatdan yanada chuqurroq tadqiq etish, uning yangi-yangi qirralarini ochib berish barcha olim va amaliyotchilarimiz oldida turgan dolzarb vazifadir"<sup>1</sup>, deb alohida vazifalarni belgilab bergan edilar. Shu bilan birga, amaliyotda hali mahalliy davlat hokimiyati organlarining aholi bilan ishlashda mavjud samarali shakl va uslublardan yetarlicha foydalanmayotganligi bilan bog'liq muammolar uchramoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Ming afsuski, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarimizni joylarga yetkazish, keng tushuntirish ishlarini, targ'ibotlarni o'tkazish va kechiktirmasdan hayotimizga joriy etish, buning uchun kerakli chora va tadbirlarni ko'rish - bugungi kunda faoliyatimizning oqsoq bir tomoniga aylanib qolmoqda"<sup>2</sup> deb mazkur muammolarga o'z e'tiborini qaratgan edilar. Aynan yuqorida ko'rsatilgan muammolarni samarali bartaraf etish maqsadida mahalliy davlat

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Tanlangan asarlar 10-tom. T. 78-bet

<sup>2</sup> I.A.Karimov "Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini belgilash zarur". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining beshinchi yilpi majlisidagi nutq, 2006 yil 24 fevral

hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish zaruriyati mavjud, chunki mazkur organlar davlat organlari tizimida muhim o'rin egallaganligi va son jihatdan ko'pchilikni tashkil etuvchi bo'g'in bo'lganligi bois ular orqali asosan mamlakat oliy siyosiy rahbariyatining qarorlarini amalga tadbiiq etilishi ta'minlanadi. Shu tariqa, mahalliy ijro hokimiyati organlarining umumdavlat vazifalarini bajarishdagi o'rni va rolini to'g'ri belgilash, ular faoliyatiga eng samarali shakl va uslublarni joriy etish, shuningdek mazkur organlar huquqiy maqomining keyingi rivojlanish istiqbolini aniqlash davlat qurilishining xozirgi bosqichdagi dolzarb vazifalardan sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatni modernizasiya qilish modelini amalga oshirish uchun tanlangan "kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" prinsipini tadbiiq etishning mazmun-mohiyatini ochib berishda muxim vazifalar qatorida, quyidagilarni belgilaydi: "Avvalambor, hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qo'shimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish. Yana bir muhim vazifa – o'zini o'zi boshqarish organlari – mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq fuqarolik yig'inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish lozim"<sup>3</sup>. Shuningdek, mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatini tashkil etish masalasining dolzarbligini xalq deputatlari mahalliy kengashlarining davlat va jamiyat boshqaruvi ishlaridagi rolini tobora oshirib borish zarurati bilan ham belgilanadi. O'z navbatida, davlat hokimiyati organlari faoliyatining muvaffaqiyati mahalliy ijro hokimiyati organlarining qay darajada samarali amal qilib turganligiga bog'liq. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: "biz mahalliy deputatlar, mahalliy hokimiyat davlat boshqaruviga ko'proq ta'sir ko'rsatishini yoki o'z

---

<sup>3</sup> И.А.Каримов Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-кудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ. Танланган асарлар. 13-Том. Т., 2004., 117 бет

vakolatlarini aniqroq belgilab olishini ta'minlashga intilmoqdamiz"<sup>4</sup>. Mazkur masala O'zbekistonda ikki palatali parlament tashkil etilganligidan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyati organlarining Oliy Majlis bilan, ayniqsa, uning yuqori palatasi bilan o'zaro munosabatlariga yangi shakl va uslublarni joriy etish taqozo etilayotganligida ham o'z dolzarbligini ko'rsatmoqda. Shu tariqa, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatining takomillashuvi siyosiy tizimning rivojiga bevosita xizmat qiladi, bu ham tadqiq qilinayotgan muammoni dolzarbligini belgilaydi. Mahalliy ijro hokimiyati organlari funksiyalarini hozirgi davr sharoitlariga mos holda shakllantirish bo'yicha maqbul bo'lgan yechimlarini topish masalasining muhimligi va shu bilan birga murakkabligi ham tadqiqot mavzusiga alohida dolzarblikni baxsh etmoqda. Mazkur masalaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "bizning Konstitusiyamiz va har bir hokimiyat organi vakolatlari belgilab berilgan qonunlarimizni inobatga olgan holda, shuni aytishim kerakki, biz hozirgi kunda totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan demokratiya tizimiga o'tish davrida yashayapmiz"<sup>5</sup> deya o'ziga xos ravishda baho bergan. Shundan kelib chiqib, Prezidentning 1995 yilda bildirgan "bizga malakali, har tomonlama tajribaga ega bo'lgan, o'zgarishlarni hayotga tatbiq etishga qodir boshqaruv apparati kerak"<sup>6</sup> degan konseptual fikrlari bugungi kunga qadar o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Davlatimiz rahbarining ushbu fikrlari mahalliy ijro hokimiyati organlariga xam bevosita taaluqlidir.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatidagi quydagi kamchiliklarga e'tiborini qaratadi: "Viloyatda kadrlar zahirasini yaratish, ularni o'qitish, tarbiyalash, malakasini oshirish, stajirovkalar, seminar mashg'ulotlari tashkil etish

---

<sup>4</sup> И.А.Каримов И.А.Каримов Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Танланган асарлар 10-том. Т. 94-бет

<sup>5</sup> И.А.Каримов И.А.Каримов Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Танланган асарлар 10-том. Т. 95-бет

<sup>6</sup> И.А.Каримов Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Танланган асарлар. 3 Том, 1996 йил 8-бет

masalalari mahalliy hokimliklar e'tiboridan chetda qolmoqda"<sup>7</sup>, "Viloyatda adolat mezonining buzilishi, rahbarlarning xalqdan ajrab qolishi, aholi murojaatlariga e'tiborsizligi natijasida Prezident devoniga kelayotgan shikoyat va arizalar soni ko'payib bormoqda"<sup>8</sup>, "Shunday bo'lsa-da, bugun biz davlat mablag'larini oqilona sarflashning eng maqbul tarkibiga egamiz, deb ayta olmaymiz. Tekshirishlar shuni ko'rsatyaptiki, byudjet mablag'larini sarflashda qo'pol xato-kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda, ba'zi hollarda byudjetdagi moliya mablag'lari maqsadli ishlatilmayapti, pul mablag'lari va moddiy resurslar noqonuniy o'zlashtirib yuborilmoqda, eng yomoni, davlat mablag'laridan tejankorlik bilan, umumli foydalanishni rag'batlantirish choralari ishga solinmayapti"<sup>9</sup>. Mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatidagi davlat rahbarimiz ko'rsatgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etish jihatlarini kompleks nazariy va tizimli tadqiq qilishni o'tkazish va shular asosida ilmiy-asoslangan xulosalarni ishlab chiqish, bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot obekti va predmetining belgilanishi;** Mahalliy davlat hokimiyati organlari tadqiqot obyektini tashkil etadi.

Tadqiqot predmetini mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi va faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, shuningdek Samarqand viloyati mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar tashkil qiladi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari;** Samarqand viloyati misolida respublika mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganish; rivojlanish tendensiyasini aniqlash; rivojlangan xorijiy davlatlarni tajribasini tahlil qilish va ularni bizning davlatchiligimiz sharoitida

---

<sup>7</sup> И.А.Каримов И.А.Каримов Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Танланган асарлар 10-том. Т. 120-бет

<sup>8</sup> Ўша китоб...122 бет

<sup>9</sup> И.А.Каримов И.А.Каримов Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Танланган асарлар 10-том. Т. 212-213 бетлар

qo'llash mumkin bo'lgan qirralarini aniqlash; shu asosda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, ishda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zlangan:

- mahalliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etilishi va faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilish;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari tashkiliy tuzilishining xususiyatlarini tadqiq qilish;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi asosiy kafolatlar tizimini aniqlash;

- hokimiyatni bo'linish prinsipini mahalliy darajada tadbiq etilishini davlat-huquqiy belgilarini tadqiq qilish;

- turli darajadagi mahalliy davlat hokimiyati organlari o'zaro munosabatlarining nazariy va amaliy masalalarini o'rganish;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarini vakillik hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro munosabatlarining xususiyatlarini tadqiq qilish;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, ularni mazmunan tasniflash va tizimlashtirish;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi va faoliyati prinsiplarining asosiy konstitusiyaviy prinsiplarga mosligini aniqlash, shundan kelib chiqqan holda amaldagi huquqiy normalar va ular bilan tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarni ularga moslik darajasini aniqlash;

- ilmiy-nazariy tahlil asosida Samarqand viloyatida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini yoritish, uning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari;** Ishning asosiy masalasi shundan iboratki, Samarqand viloyati mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining kompleks tarzida ilk bor ko'rib chiqildi. Ularni tashkil etilishi va faoliyatining siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatlarining tahlili o'tkazildi. Obyekt O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga yo'naltirilgan yangi siyosiy dastur amalga oshirilayotganligini inobatga olgan holda tadqiq qilingan.

Tadqiqot natijasida Samarqand viloyati mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirish bo'yicha muammolarini hal etishda yangi yondashuv bilan ta'riflanadigan quyidagi ilmiy-nazariy ma'lumotlar o'rganilgan:

- mahalliy davlat hokimiyati organlari tashkil etilishi va faoliyatini tartibga solish amaliyoti to'g'risida ma'lumotlar olingan;

- davlat-hokimiyati vakolatlarini yuqori turuvchi davlat organlaridan quyi turuvchi, va shunday qilib jamoat birlashmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazishning asosiy soha va doiralari, shakl va uslublari o'rganilgan;

- hokim qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va bajarish tartibini amalga oshirishga qaratilgan ma'lumotlar olingan;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet mablag'larini samarali shakllantirish va foydalanish borasida ma'lumotlar o'rganilgan;

**Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili;** Mazkur dissertasiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan tegishli qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, "Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risida" gi qonun hamda Samarqand viloyati mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan qaror va farmoyishlar asosida tayyorlangan. Shuningdek dissertasiya ishida Husanov O. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. —T.:

«Sharq», 1996, To'laganov A. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish. -T.: 2002, A.Saidov, U.Tojixonov. «Davlat va huquq asoslari». T.2002. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganish o'quv kursi.2006y. V.Tyurikov, R.Shog'ulomov Mustaqil O'zbekiston Respublikasi T., O'zbekiston, 1998., D.H.Karimov, M.M.Miroqulov "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy asoslari". T.2009. kabi asarlar tahlili asosida yoritilgan.

**Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi;** Dissertasiyaviy tadqiqotining metodologik manba asosini bilishning dialektik uslubi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovni asarlarida aksini topgan umume'tirof etilgan asosiy g'oyalari, davlatshunos olimlarning asarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, Vazirlar Mahkamasining materiallari va qarorlari, shuningdek, viloyat hokimligi tomonidan ishlab chiqilgan qaror va farmoyishlar tashkil etadi

Viloyatdagi barcha darajadagi mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati amaliyotini o'rganishda va umumlashtirishda qiyosiy metoddan foydalanilgan. Tahlilning asosiy usuli sifatida qiyoslash va tahlil qilish metodlari qo'llanilgan. Mazkur mavzuga doir taqqoslash metodidan foydalanishga urg'u berilishi tadqiqot predmetini to'laroq ochib berishga imkon berdi.

Dissertasiyada Samarqand viloyati mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining statistic joriy arxiv va davriy nashrlar materiallaridan faol foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati;** Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, nazariy xulosalar va amaliy takliflar mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etish vazifasini hal qilishda foydalanilishi mumkin, shuningdek ishning negizida

ularni huquqiy maqomini rivojlantirish istiqbollari yo'llarini ko'rsatuvchi g'oyalar ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalari Samarqand viloyatidagi mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning faoliyati bilan qiziquvchilarga amaliy yordam bo'lib xizmat qiladi

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi;** Mazkur dissertasiyaning ilmiy yangiligi shundan iboratki mustaqilligimizning yigirma yilligi ichida amalga oshirilgan islohatlar natijasida Samarqand viloyatidagi mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning faoliyati yangicha qarashlar asosida arxiv hamda davriy matbuot materiallari to'laligicha ochib berilgan.

**Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi;** Mazkur dissertasiya kirish 2 bob, 5 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iboratdir.

## **1-bob Mahalliy davlat hokimiyati organlarining shakllanishi va rivojlanishi.**

### **1.1 O'zbekiston mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqiy asosining yaratilishi va hokimlik institutining tashkil etilishi**

O'zbekistonda mustaqillikka erishilgandan keyin boshlangan keng ko'lamdagi islohotlarning maqsadi mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, ochiq huquqiy demokratik davlatchilikni barpo etishdir. Bu boshqa tizimlar qatori mahalliy davlat hokimiyati tizimida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qildi. Chunki 90 yillarning boshlarida O'zbekistonda mavjud bo'lgan hokimiyat tizimi, jumladan mahalliy hokimiyat tizimi SSSRda shakllangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining tarkibiy qismi bo'lib, KPSS qarorlarini hayotga tadbiiq etishga yo'naltirilgan va partiyaning ta'sir doirasiga to'lasincha olingan muassasalardan tashkil topgan tizimga aylangan edi. Demak bu tizim buyruqni ijro etishga moslashgan tizim sifatida masalalarga ijodiy yondashishni talab qiladigan, bozor munosabatlari o'rnatilgan, demokratlashtirish, liberallashtirish jarayonlari kuchaygan yangi davr talablariga umuman javob bermas edi. Endilikda mahalliy hokimiyat organlari o'zgarayotgan sharoitga tezlik bilan moslasha oladigan, xalq manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yadigan, aholi eng zarur ehtiyojlarini qondira oladigan muassasalar bo'lishi talab qilinadi.

Xalqaro va milliy davlatchilik tajribalarini o'rganish asosida mustaqillikning dastlabki oylaridayoq joylardagi mahalliy hokimiyat organlarini yangi asosda shakllantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra vakillik organining kollegiallik, ijroiya hokimiyatining yakkahokimlik va shaxsiy javobgarlik tamoyillari asosida shakllantirilishi ko'zda tutildi. Ana shu konseptual asosga ko'ra mamlakatimizda hokimlik instituti qayta tiklandi. Shuni ta'kidlash lozimki hokimlik instituti bu bugungi kunga kelib qilingan ixtiro emas. Uning ildizlari ko'hna tariximizga borib taqaladi. Shuning uchun ham

hokimlik tizimida mamlakatimiz milliy davlat qurilishining ko'p asrlik tajribasi o'zining aksini topdi.

Hokimlik instituti kuchli hokimiyatga ehtiyoj katta bo'lgan hozirgi zamon talablariga to'la javob beradi. Hokim aholini qiziqtirayotgan barcha joriy muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ham vakillik ham ijroiya hokimiyatni o'zida mujassamlashtiradi. Demak u ham boshqaruvda ham ijroda shaxsan javobgar hisoblanadi. Ijroiya organi bo'lgan hokimiyat boshqaruv va ijro funksiyalarini o'zida mujassamlashtiradi. Yangicha munosabatlarga o'tish jarayonida mahalliy hokimiyat organlari o'z hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga bevosita ma'sul bo'lishlari lozim edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ana shunday vazifalarni uddalaydigan yangi hokimiyat organlarini shakllantirish va ularning huquqiy maqomini belgilash maqsadida bir qator qonunlar va rasmiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Oliy Kengashi qarori bilan 1991 yil 18 noyabrda Toshkent shahrida hokimlik institutining tashkil etilishi bu boradagi birinchi qadam bo'ldi<sup>10</sup>.

1992 yil 4 yanvarda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi mamlakatimizda mahalliy davlat hokimiyati organlarini qayta tashkil etish haqida konstitusiyaviy qonun qabul qildi<sup>11</sup>. Bunda bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik huquqiy davlatni qurishning o'ziga xos jihatlari e'tiborga olinib, o'tish davri talablaridan kelib chiqib, avvalo ijroiya hokimiyatini mustahkamlash nazarda tutilgan edi. Bu qonunga asosan Toshkent shahrida, barcha viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik lavozimi joriy etildi hamda ular zimmasiga vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqarish vazifasi yuklatildi.

---

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарх, Т., Ўзбекистон, 2001, 146 б.

<sup>11</sup> В.Тюриков, Р.Шоғуломов Мустақил Ўзбекистон Республикаси. Т., Ўзбекистон, 1998, 17 б.

1992 yil aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham hokimlik lavozimini joriy etish borasida qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XXI-bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari deb nomlangan. Konstitusiyaning **99-moddasiga** ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Konstitusiya asosida O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlarining ikki tabaqali tizimi vujudga keltirildi. Mahalliy ijro va vakillik organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning konstitusiyaviy holati aniqlandi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari bir-biriga bo'ysunmagan mustaqil davlat va vakillik organlari bo'lib, o'zaro munosabatlarda hamkorlik asosida o'z faoliyatlarini tashkil etadilar. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlariga hokimlarning rahbarligi uni Kengash oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

O'zbekiston Konstitusiyasida ko'rsatilishicha "Vakillik va ijroiya hokimiyatining tegishliligiga qarab, viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi. Viloyat hokimlari va shahar hokimlari va Toshkent shahar hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlarga bo'ysungan shaharlarning hokimlarini tuman hokimi tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi."<sup>12</sup>

---

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т.: Ўзбекистон. 2003. 28-бет

Demak, mahalliy davlat hokimiyati organlarning faoliyatini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari «Ish tartibi» va boshqa me'yoriy qonun hujjatlari asosida tashkil etila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasidagi ayrim xalq deputatlari Kengashlarida hokimning ijro etuvchi mahkamasi to'g'risida Nizomlar ham qabul qilindi.

Mahalliy ijroiya hokimiyati deganda O'zbekistonda barpo qilingan viloyat, tuman shahar hokimiyatlari tizimi tushuniladi. Mahalliy vakillik va ijro etuvchi mahkama hokimning rahbarligi ostida ishlay boshladi.

Konstitusiyaga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish. **(100-modda).**

Mahalliy davlat hokimiyatining faoliyat prinsiplarini amalga oshirilishi tegishli hududning barcha sohalarini rivojlantirishda ularning jamiyat va davlat hayotida tutgan o'rnini belgilab beradi. Hokim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ldi. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari boshqarmalar, bo'limlar va bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning tuzilishi va tashkil etilishi

tartibi, faoliyat yuritish asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli Nizomlar bilan belgilandi. Xo'jalik va ijtimoiy - madaniy qurilish tarmoqlarini tezkorlik bilan boshqarishni ta'minlash uchun tegishli bosh boshqarmalar, bo'limlarni va boshqa ijro etuvchi tuzilma bo'linmalarini birlashtiruvchi tarmoq majmualari tuzildi. Mana shu tarmoq majmualariga rahbarlik qilish hokimning o'rinbosarlariga yuklatildi. Tuzilma bo'linmalari hokim tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida ishlay boshladi.

Shuningdek, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim muammolarini muhokama qilish uchun hokim huzurida Maslahat Kengashi tuzildi, uning tarkibiga hokimning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari kotibiyat boshlig'i kiritildi. Hokimning qaroriga muvofiq, Maslahat Kengashi tarkibiga xalq deputatlari Kengashining deputatlari va boshqa tashkilotlardan bo'lgan vakillar ham kiritildi. Maslahat Kengashi majlislari zarurat bo'lganda hokim tomonidan chaqirilib, va uning rahbarligida o'tkazila boshlandi.

Majlislarning kun tartibini tuzish, ularni tashkil etish va o'tkazish, hujjatlarni rasmiylashtirish hokim Kotibiyatining boshlig'i tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Kengash majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun tuman va shahar hokimlari, bo'limlar, bosh boshqarmalar rahbarlari, jamoatchilik va xo'jalik tashkilotlarining ommaviy axborot vositalarining vakillari qatnasha boshladilar. Maslahat Kengashining majlislarini tayyorlash va o'tkazish hokim tomonidan uning vakolatini hamma muddatiga tasdiqlanadigan reglamentga muvofiq, amalga oshirila boshlandi. Majlisning borishi bayonnomada yozib borildi, unda ishtirok etgan shaxslar, kun tartibi, munozaralarda qatnashganlarning fikri, so'zga chiqqanlarning takliflari va tanqidiy mulohazalari va Kengash qanday qarorga kelganligi qayd qilindi. Muhokama qilingan masalalar bo'yicha uzil-kesil qaror hokim tomonidan qarorlar yoki farmoyishlar shaklida qabul qilina boshlandi. Qarorlarning loyihalari yoki ulardan ko'chirmalar ish yurgizish haqidagi

"Yo'riqnoma"larida ko'rsatilgan muddatlarda yoki qarorlarni o'zlarida ko'rsatilgan muddatlarda manfaatdor tashkilotlarga va fuqarolarga yuborildi.

Maslahat Kengashi majlislarini tayyorlash xalq deputatlari Kengashining sessiyalarini tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasidagi hokimliklar faoliyatini tashkil qilishdagi muhim yo'nalishlaridan biri aholini qabul qilish, ularning istak-xohishlarini o'rganish, omma bilan bevosita muloqotda bo'lishdir, respublikada aholini qabul qilish bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan. Hokim, hokimning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, bo'limlar, boshqarmalar va bosh boshqarma rahbarlari, hokim kotibiyati boshlig'i aholini qabul qiladilar.

Qonunchilikda davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning ariza va xatlarini ko'rib chiqishning ma'lum tartibi belgilangan. O'zbekiston Respublikasida "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuniga binoan, hokimlar ariza va xatlar bo'yicha qilingan ishlarni hisobini olib boradi va uning vazifasiga ularni to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqishni nazorat qilish yuklatilgan.

Arizalarni ko'rib chiqish nazorati va hal etish uchun bo'lim, boshqarma va apparatning boshqa xodimlarining shu masala buyicha yig'ilishlari muhim ahamiyatga egadir. Hokimning faoliyatini to'g'ri tashkil etishda hokimning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati tizimi doirasida hokimning birinchi o'rinbosari hududning xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish sohalarining alohida tarmoqlarini muvofiqlashtirish, tezkorlik bilan boshqarish va ularning faoliyatini nazorat qilishni ta'minlaydi va qaror, farmoyishlar qabul qilish huquqiga egadir.

Hokimning o'rinbosarlari o'zlarining tuzilma bo'linmalari faoliyatiga rahbarlikni, paydo bo'ladigan muammolar va masalalarni o'z huquqlari

doirasida tezkorlik bilan hal etish, vaqti-vaqti bilan qilingan ishlarni tekshirib turish, keyinchalik bular haqidagi xulosalarni va tavsiyanomalarni hokimga yoki tegishli xalq deputatlari Kengashiga taqdim etish kabi vazifalarni bajara boshladilar.

Hokim o'z o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlab, xalq xo'jaligini rivojlantirish, o'ziga qarashli bosh boshqarmalar, tarmoq majmualariga kiruvchi trestlar va bo'limlar faoliyatini muvofiqlashtirish masalalarini tezkorlik bilan hal etish maqsadida majmualarning rahbarlari-hokimning o'rinbosarlari bilan birga, o'z huquqlari doiralarida ko'rsatmalar (topshiriqlar) shaklidagi farmoyishlar qabul qila boshladi. Ushbu ko'rsatmalar tegishli hududdagi o'zlariga qarashli idoralarga, muassasa va tashkilotlarga yetkaziladi va uning bajarilishi shartligi belgilandi.

Hokimning o'rinbosarlari hokim qarorlari va farmoyishlarini bajarish maqsadida ham ko'rsatma berish huquqiga ega bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, tuman tarkibidagi shaharlarda va shaharchalarga bo'ysungan tumanlarda Kengashlar tuzilmaydi. Shahar tarkibidagi tuman hokimi, shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shahar tarkibiga kiruvchi tuman hokimlari shahar hokimining rasmiy vakolatli vakili hisoblanadi va unga hisob berib turadilar. Tumanlar tarkibiga kiruvchi shahar hokimlarining tayinlanishi ham shu tartibda amalga oshirila boshlandi.

Tuman va shaharlarning hokimlari o'zlarining amaliy faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari yuqori turuvchi idoralarning qarorlari va farmoyishlari, tegishli xalq deputatlari Kengashi va viloyat hokimi qarorlarini amalga oshirish ishini ta'minlay boshladilar.

Tuman va shahar hokimlari, uning mahkamasi tarmoq majmualari, idoralari va tashkilotlari, korxonalari, muassasalari, o'zini-o'zi boshqaruv idoralari bilan bo'lgan munosabatlarda tuman shahar nomidan ish ko'rdilar.

Tuman va shahar miqyosida qonuniy amalda bo'ladigan qarorlar qabul qilish, iqtisodiy ahvolni barqarorlashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarning loyihalarini ishlab chiqish va ko'rib chiqish uchun taqdim etish, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarning bajarilishini nazorat qilish huquqiga ega bo'ldilar.

Shuningdek, tuman tarkibiga kiruvchi shahar hokimi ham shu tartibda tashkil etildi va o'zlariga tegishli hududlarda qurilayotgan va ishlab turgan ishlab chiqarish quvvatlari, agar ular O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish yerlaridan va tibbiy resurslardan foydalanish, tibbiy me'yorlari va qoidalariga rioya qilish to'g'risidagi qonunlarga muvofiq kelmasa, ishlashini to'xtatib qo'yish yoki ta'qiqlash huquqiga ega bo'ldilar. Mehnat resurslaridan tegishli hududda to'g'ri foydalanilishini ta'minlab, fuqarolarni ish bilan ta'minlash, aholining ijtimoiy kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy himoya qilish yuzasidan davlat byudjetidan ajratiladigan moddiy ta'minotning taqsimlanishini nazorat qila boshladilar.

Yuqori turuvchi hokimga takliflar kiritish uchun iqtisodiy va ijtimoiy-maishiy muammolar sohasida ustun darajada va kechiktirib bo'lmaydigan qarorlar qabul qilishni talab qiluvchi masalalarni aniqlab, har yili yuqori turuvchi hokimga o'z ishlari to'g'risida hisob berib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan tegishli takliflar taqdim eta boshladilar.

Bundan tashqari shahar tarkibidagi tumanlar va tumanlarga bo'ysunuvchi shaharlar hokimlarini ko'pgina vakolatlari yuqori turuvchi hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari bilan kelishilgan holda belgilana boshlandi.

Mahalliy ijroiya hokimiyat faoliyatini tashkil etishda hokim mahkamasiga kiruvchi bo'linmalar va ularning tarkibiga kiruvchi umumiy bo'lim alohida

ahamiyatga egadir. Umumiy bo'lim hokim tomonidan tashkil etilib, bevosita kotibiyat boshlig'iga bo'ysuntirildi. Umumiy bo'lim o'z ishini umumiy bo'lim to'g'risidagi Nizom asosida tashkil eta boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov yozadi: "Boshqaruv vazifalarining asosiy qismini markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar tumanlardagi davlat hokimiyati va boshqaruv idoralariga o'tishni ta'minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'zini o'zi boshqarish jamoatchilik tashkilotlariga ham yetib boradi".<sup>13</sup>

O'zbekiston Respublikasidagi davlat hokimiyatining vakillik organlari tizimida o'tkazilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" asarida bir og'iz so'z bilan shunday belgilanadi: "insonga xizmat qilmaydigan bironta davlat tizimi mavjud bo'lishga haqli emas".

Barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak. Ana shu maqsadni amalga oshirishda davlat hokimiyatini vakillik va fuqarolarnig o'zini o'zi boshqarish organlari alohida o'rin egallaydilar.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida mamlakatdagi iqtisodiyot ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy sharoitlarni hisobga olgan holda respublikadagi xalq deputatlari Kengashlari va o'z-o'zini boshqarish organlari xususiyatlarini tahlil qilish muhim talablaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasidagi mavjud xalq deputatlari Kengashlari, o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimida ularni huquqiy holatida birma-bir o'zgartirishlar qilish bo'yicha yoki ularning faoliyatiga boshqaruvni va

---

<sup>13</sup> Каримов И.А.. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т.: Ўзбекистон, 1995, 5-бет.

boshqaruv mehnati usullarini tadbiiq qilish zaruriyatini aniqlash maqsadida eksperiment o'tkazildi. Masalan, O'zbekistonda xalq deputatlari Kengashlari rayosatini tuzish, ularning raislarini saylash, Toshkent shahar hokimini Toshkent shahar aholisi tomonidan saylanishi eksperiment tariqasida o'tkazilgan edi.

O'zbekiston Respublikasnnng 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan Qonuniga muvofiq viloyat, tuman, shahar hokimi mahalliy hududning oliy mansabdor shaxsi sifatida tegishli hudud ijroiya Hokimiyatini boshqaradigan bo'ldi. Joylarda hokimlnklar joriy etildi. Respublikaning 12 viloyati va Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va tegishli Xalq deputatlari Kengashlari sessiyasida tasdiqlanadigan hokimlar boshchiligidagi hokimliklar tashkil qilindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari va tegishli hokimlarning faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonun va Qoraqalpog'iston respublikasining Qonunlari bilan tartibga solinadigan bo'lindi.

Shuningdek, 163 qishloq tumanlari, 18 shahar tumanlarida, 120 shaharlarda hokimlik idoralari tashkil kilindi<sup>14</sup>.

Albatta qisqa vaqt ichida hokimliklar o'z hududida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarini amalga oshirishda, joylarda Oliy Majlis Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosini ta'minlashda, aholining ijtimoiy himoyasini tashkil qilishda muayyan tajriba to'pladi.

Hokimlik oldingi Kengash raisligidan yoki birinchi kotiblikdan lavozim va huquqiy maqomi bilan ancha farq qiluvchi institutdir.

---

<sup>14</sup> Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т., «Шарқ», 2000, 109 бет

Hokimlikka endi ko'proq mustaqillik o'z hududida o'z hukmi va so'zining salmog'ini oshirish, xo'jalik va iqtisodiy boshqaruvda qat'iyat bilan ishlash imkoniyati kengaydi. Hokimlik usulining ixchamligi, buyruqbozlik va qog'ozbozlikning kamayishi, hayotga va ishlab chiqarishga yaqinligi bilan oldingi boshqaruv tizimi an'analari va usullaridan ancha afzalliklarga ega bo'ldi.

Biroq tahillar shuni ko'rsatdiki, hokimliklar hamma joyda ham butun imkoniyatlari va iqtidorlarini ko'rsata olmadilar. Ularning ayrimlari yangicha tizimda eskicha usul bilan ishladilar. Mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi kamchiliklar islohotlarni izchil amalga oshirishga tusqinlik qila boshladi. Joylarda odamlar rasmiyatchilik poraxo'rlik, «sendan ugina, mendan bugina» qabilida ishlash. ta'magirlik konunbuzarlik - holatlaridan aziyat cheka boshladi. Bunday salbiy holisalarni Prezident Islom Karimov bir qator viloyat kengashlari sessiyalarida xususan, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Namangan viloyatlaridagi sessiyalarda Vazirlar Mahkamasi yig'ilishlarida ochiqdan-ochiq tanqid qildi. Qonun ustivorligiga erishish borasidagi kat'iy mulohazalarini o'rtaga tashladi.

Jumladan, xalq depupatlari Sirdaryo viloyati kengashining 1993 yil, 9 oktyabrda bo'lib o'tgan sessiyasida I.Karimov shunday degan edi: «Viloyatda kadrlarni tanlash, ularni o'rganish jarayonlari xalq deputatlari, faollardan sir tutilgan. Kadrlarni tanlashda ularniig malakasi, kat'iyatliligi, qobiliyati emas, aksincha, ularni ishga tayinlashda viloyat rahbariga nisbatan shaxsiy e'tiqodi, sadoqati inobatga olingan. Lavozimlarni tanish-bilishchilik, oshna-og'aynigarchilik asosida taqsimlashga yo'l ochilgan. Bu yo'l bilan tayinlangan rahbarlardan yurt, Vatan, istiqlol manfaati uchun nima kutish mumkin?»

Darhaqiqat, jamiyat hayotidagi tub burilish odamlar tafakkurida, jumladan rahbar kadrlar dunyoqarashida keskin o'zgarish yasashni taqozo qiladi. Istiqlolning dastlabki yillari aytish mumkinki ana shunday fikriy o'zgarishlarni, jiddiy islohotlarga abhida tayyorgarlikni boshlash lozim. Yangi davrning yangi talablari asosida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimi barbod etilsada, totalitar tuzum yo'q qilingach tabiiyki uning illatlaridan batamom qutilib bo'lmaydi. Jumladan, talon-tarojlik, odamlar haqiga xiyonat qilish, qonunsizlik ma'muriyatchilik va to'rachilik illatlari yangi tuzum ma'naviy qiyofasiga putur yetkazar edi. Jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lar edi. Shuning uchun ham mamlakatda mahalliy davlat hokimiyati idoralari tizimini takomillashtirishda uning ham shaklan, ham mazmunan o'zgartirishga jiddiy e'tibor berildi. Eng avvalo islohotlarni qonun bilan mustahkamlash davlat boshqaruvining yangi tizimining huquqiy negizlarini yaratish borasida qator ishlarni amalga oshirdi.

Qonun ustivorligi, boshqaruvning ham, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarini ham butunlay qamrab olmog'i, jamiyat hayotining barcha qirralarida o'zini namoyon etishi choralari ko'rildi.

Shunday qilib, respublikda davlat hokimiyati barcha organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar bazasi vujudga keldi. Ular markaziy, viloyat, shahar va rayonlar darajasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv funksiyalarini aniq kilib belgilab berdi. Bu mustaqil milliy davlatchiligimizni ta'minlovchi muhim shartlardan biridir.

## **1.2. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining shakllantirilishi va ularning demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishdagi roli.**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va davlat qurilishi sohalarida amalga oshirilgan islohotlar qatorida mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini isloh qilish alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu jarayon, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini qabul qilish munosabati bilan yanada faollashdi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish bo'lsa, ikkinchi vazifa respublikada davlat hokimiyatini vakillik va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining tizimini yaratish edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning, yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmag, degan ko'rsatmalariga amal qilib, vakillik organlarining viloyat, tuman va shahar bo'g'inlari saqlanib qolindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 99-moddasiga muvofiq viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlaridir. Respublikada milliy davlatchilik an'analarini tiklashni ko'zda tutib, hokimlik instituti kiritildi. Hokimlar qonunga muvofiq ham vakillik organlariga, ham ijroiya hokimiyatiga rahbarlik qiladilar. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi<sup>15</sup>.

O'zbekiston Respublikasidagi davlat hokimiyati vakillik organlarining quyi bosqichlarini ovul, qishloq, shaharcha, tumanga bo'ysunuvchi shahar va shaharlardagi xalq deputatlari sovetlari tugatilib, ularning o'rniga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari joriy etildi. Fuqarolik jamiyati qurishning

---

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.2012

ma'nosi davlatchilik rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirishdir.

Mahalliy Kengashlar faoliyatida qonuniylik prinsipini ta'minlash qator talablarga javob berishni ko'zda tutadi, ularni asosiylari quyidagilardir:

**Birinchi**dan, konstitutsiya va qonunlar bilan belgilab berilgan vakolatlarga rioya qilish. Har bir Kengash qonunlar bilan belgilangan masalalarnigina hal qilishi mumkin.

**Ikkinchi**dan, masalalarni hal qilishning belgilangan tartibiga rioya qilish.

Nihoyat, **uchinchi**dan, qabul qilinayotgan aktlarga nisbatan qonunchilik talablariga rioya qilish, Kengash faqat unga berilgan huquqlar doirasidagina aktlar qabul qilishi mumkin. Kengashning qarori o'zining mazmuniga ko'ra, qonunlarga va yuqori organlarning aktlariga mos bo'lishi shart. Qaror, qonunlar ko'zda tutilgan tartibda va shaklda qabul qilinadi.

Xalq deputatlari Kengashlari ishini oshkoraligini ta'minlash usullari juda ham turli-tuman, lekin ular bir-biridan ajralib qolgan emas, ularni demokratik asosi va maqsadi birdir. Alohida olingan usulning o'zi Kengashlarning faoliyatida oshkoralikni ta'minlay olmaydi albatta, lekin ularning hammasi Kengashlar faoliyati omma oldida va uning ishtirokida olib borilishiga muhim omil bo'ladi.

Bu talablar faqat vakillik organlari faoliyatiga tatbiq qilinib qolmasdan, balki ijroiya hokimiyati, uning organlari va hamma deputatlarning faoliyatiga ham tatbiq qilinadi, chunki deputatlarning sessiyalardagi, komissiyalardagi va saylov okruglaridagi faoliyati, boshqarish sohasidagi davlat faoliyatining bir ko'rinishidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq hamma millat vakillari

shu organlarga saylanibgina qolmasdan, ular tizimidagi organlarda ham keng faoliyat ko'rsata boshladilar.

Deputatning o'z saylov okruglaridagi faoliyatini amalga oshirishdagi muhim kafolatlaridan biri, deputatning qonun buzilgan hollarni bartaraf etishni talab qilish huquqidir. O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi qonunida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra davlat hokimiyatining vakili sifatida deputat fuqarolarning huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzilganligi yoki qonunchilik o'zgacha tarzda buzilgan hollarga duch kelganda o'sha joyning o'zida bunday buzilishlarning to'xtatilishini talab qilishga, zarur hollarda esa shunday buzilishlarga chek qo'yilishini talab qilib, tegishli organlar va mansabdor shaxslarga murojaat etishga xalqidir.

Xalq deputatlari o'z saylovchilari bilan doimiy aloqada bo'lishlari, ularni Kengash ishi haqida, xo'jalik va ijtimoiy qurilish rejalarini bajarilishi haqida xabar qilib turishlari kerak. Deputatlar qonunlarni Kengash va uning organlari qarorlarini ijro qilinishida nazorat qilishlari, jamoatchilik fikrini o'rganishlari, Kengash va uning organlariga aholining talab va ehtiyojlarini yetkazishlari va ularni qondirishga tadbirlar ko'rishlari, tegishli organlarni ko'rib chiqish uchun, deputatlik faoliyatidan kelib chiqadigan takliflarni kiritishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq viloyat, tuman va shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatni boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunida xalq deputatlari Kengashi va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlari berilgan. Shu qonunning 26-moddasiga muvofiq xalq deputatlari

viloyat, tuman, shahar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarorlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi. Hokimlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, hukumat hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi. Bundan tashqari yuqorida ko'rsatilgan qonunning 28-moddasiga muvofiq hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin<sup>16</sup>.

Oshkoralik davlat hokimiyati vakillik organlarini yana rivojlantirishda muhim yo'nalishlardan biridir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi ham, mahalliy vakillik organlari bo'lgan viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari ham, o'zini-o'zi boshqarish organlari ham saylovlar asosida tashkil etiladi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokim faoliyati, qarorlar qabul qilishdan tortib, ularni ijrosini ta'minlashgacha, ommaning ko'z o'ngida amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risidagi qonunlar ularning o'z ishlari va qabul qilgan qarorlari haqida aholini muntazam xabardor qilib turishlarini mustahkamlagan. Ma'lumki, vakillik organlari faoliyatining asosiy shakli ularning sessiyalaridir.

Amalda bo'lgan qonunchilik deputatlar Kengash qarorlarini aholiga tushuntirib borishini, saylovchilar oldida mehnat jamoalari va jamoat tashkilotlari oldida muntazam o'z ishi va Kengash faoliyati to'g'risida

---

<sup>16</sup> Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғридаги Ўзбекистон Республикасининг қонуни.

axborotlar berib turishini o'rnatadi. Bu ham oshkoralikning muhim ko'rinishlaridan biri. Oshkoralikning yana bir yo'li deputatlarning hisobotlaridir. O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risidagi qonunda deputatlarning aholi oldida muntazam hisobot berib borishlari belgilab qo'yilgan.

Mahalliy vakillik organlari, ijroiya hokimiyati va deputatlar faoliyatining samaradorligini aniqlashda eng muhim ko'rsatkichlaridan biri, shu organlarning o'zaro hamkorligining yaxshi yo'lga qo'yilganligidir.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va uni iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlatga aylantirish jarayonida davlatni boshqarishda huquqiy tartibga solish yangi ma'no kasb etadi va bu uslub keng qo'llanildi. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar ham huquqiy tartibga solish uslubini keng qo'llaydilar. Huquqiy tartibga solish xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarni davlat, xo'jalik, ijtimoiy madaniy qurilish sohalariga rahbarlik qilishlarida va o'z ichki tashkiliy tuzilishlarini tartibga solishlarida keng qo'llanildi.

Xalq deputatlari Kengashlarini va hokimlarni o'zini-o'zi boshqarish organlarining vakolatlari birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida, qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlarida va boshqa hujjatlarda belgilandi.

Huquqiy hujjatlar bilan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari, hokimlarni funktsiya va vakolatlarni amalga oshirishdagi deputatlarni, hokimlik devonini, devon xodimi va fuqarolarni tutgan o'rni va roli tartibga solindi.

Shu bilan birga huquqiy hujjatlar bilan xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar faoliyatining asosiy tashkiliy shakl va uslublari tartibga solindi. Yuqorida aytganlardan ko'rinib turibdiki, xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar faoliyatini huquqiy tartibga solish murakkab jarayonni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va hokimliklar faoliyatini huquqiy tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi juda katta vakolatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 78-moddasi 4-bandidagi holatga muvofiq Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tizimini va vakolatlarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi qaror qabul qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunning 24-moddasiga muvofiq o'zini o'zi boshqarish organlari ham qarorlar qabul qiladilar.

Davlat hokimiyatining vakillik organlari faoliyatini tartibga solishda Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan «Ish tartiblari» muhim ahamiyatga ega. Qonunning 18-moddasiga ko'ra Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan «Ish tartiblari» xalq deputatlari Kengashi sessiyalarini chaqirish va o'tkazish, unda qarorlar qabul qilish va sessiyaga hal qilish berilgan boshqa vakolatlar xalq deputatlari Kengashi «Ish tartibi»ga muvofiq belgilanadi.

Sanab o'tilgan huquqiy hujjatlar mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari, hokimliklar va o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan, ular yordamida shu organlarning vakolatlari amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kungacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan davlat hokimiyatining vakillik organlari quyidagi huquqiy hujjatlarni qabul qiladilar: xalq deputatlari Kengashining, hokimlik apparatining, «Ish tartibi» (Reglamenti).

Xalq deputatlari yordamchi va ijro etuvchi organlari to'g'risidagi huquqiy hujjatlarga: deputatlik guruhlarini to'g'risidagi Nizomlar, hokimiyat apparatini bo'lim boshqarmalari va komissiyalari to'g'risidagi Nizomlar kiradi.

Hokimlik apparatini tizilmaviy qismlari to'g'risidagi huquqiy hujjatlarga: mansab yo'riqnomalari, bo'lim va boshqarmalarning komissiyalari to'g'risidagi, qabulxonalar to'g'risidagi Nizomlar, apparatdagi mansabdor shaxslar huquqiy holatini belgilab beruvchi normativ hujjatlarga - yo'riqnomalar kiradi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining ayrim yo'nalishlari bo'yicha qabul qilinadigan hujjatlarga apparatda ish yuritish bo'yicha yo'riqnomani ko'rsatish mumkin va nihoyat davlat hokimiyatining vakillik organi va hokimlik apparatida jamoatchilikning tashabbuskor organlarini, fuqarolarni ishtirok ettirishda xizmat qiladi.

Viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar o'z hududlarida qonuniylik, huquq tartibot va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha nazorat olib boradi. Yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari quyi turuvchi xalq deputatlari faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirar ekanlar, ular faoliyatini ham nazorat qiladilar.

"Mahalliy davlat hokimiyat to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari belgilangan, unga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarining davlat mulki (jamoat mulki) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk shakllarini tashkil etadi.

Qonunda mahalliy davlat faoliyatining moliyaviy asosi ham ko'rsatilgan. Ushbu Qonunning 2-moddasida viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari belgilangan, unga ko'ra viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarni byudjet manbalari, byudjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan

fondlar kredit resurslari, shuningdek respublika (viloyat, Toshkent shahri) byudjetidan ajratilgan subvensiyalar va dotasiyalar tashkil etadi.

Qonunga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetidan tashqari fondlari ham bo'lishi mumkin, qonunning 14-moddasiga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi: fuqarolar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalaridan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan, byudjetdan tashqari o'zga mablag'lardan tarkib topadigan byudjetdan tashqari fondlardan tashkil topadi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar xo'jalik qurilishi sohasida sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa vositalarini, turar joy qurilish, kommunal qurilish, hududlarni obodonlashtirish, savdo va umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish, tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish masalalarni hal qiladilar.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar ijtimoiy madaniy qurilish sohasida xalq ta'limi, madaniy oqartuv ishlari, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport, mehnat va ish haqi masalalarini hal qiladilar. Mazkur sohada sanab o'tilgan vakolatlarning o'zigina xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning shu sohadagi funksiyalarini murakkab va turli tuman mazmun kasb etishini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunida mana shu sohada xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari va hokimlarning vakolatlari alohida-alohida berilgan. Ushbu qonunning 24-moddasida "xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishga doir masalalarni hal etadi", deyilgan, 25-moddasida esa viloyat, tuman va shahar hokimi fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlarida o'z vakolatlari doirasidagi masalalarni hal etadi deyilgan. Xalq

deputatlari Kengashlari va hokimlarning davlat qurilishi sohasidagi funksiyalarining navbatdagisi viloyat, tuman va shahar hududida bevosita, demokratiya shakllarini amalda qo'llanilishini ta'minlashdan iboratdir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining joriy etilishi bu masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Bu sohada Kengashlar va hokimlar shu hududlarda o'tkazilishi lozim bo'lgan saylovlarni tashkil etishlari, deputatlarga, bo'lajak deputatlikka nomzodlarga saylovoldi uchrashuvlarda berilgan ko'rib chiqishlari, ularni bajarish tadbirlarini ishlab chiqishlari, va bu haqda axborotlar berishlari lozim.

Xalq deputatlarining yana bir asosiy funksiyasi xalq deputatlari Kengashi va hokimiyat apparati organlarining qarorlarini qabul qilish va ular ijrosini ta'minlashdir. Shuningdek, qonunning 8-moddasida xalq deputati tegishli Kengash sessiyasida ko'rib chiqilayotgan barcha masalalarda hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi, qaror loyihalarini va ularga tuzatishlarni taqdim etadi deyilgan.

Xalq deputatining mazkur funksiyasini xalq deputatlari Kengashlari idoralarida ham amalga oshirish belgilangan. Deputat Kengash qo'mitasi, doimiy komissiyalari va boshqa idoralari tarkibiga kirsa, mazkur idoralarning ko'rib chiqishi uchun har qanday masala va taklifni kiritishga, bu masala va takliflarni ko'rib chiqish uchun tayyorlashda, ularni muhokama qilish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga, shuningdek, Kengash hamda uning idoralari qarorlarini ro'yobga chiqarishni tashkil etishda va bu qarorlarning bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga haqlidir.

Deputatning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qilinadi. Deputatning sha'ni va qadr-qimmatiga qasd qilgan shaxslar qonunga muvofiq ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Xalq deputatlari Kengashlari, boshqa davlat va jamoat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda ularning mansabdor shaxslari

deputatga o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradilar.

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 6-moddasiga muvofiq viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari qarorlar qabul qiladi. Viloyat, tuman va shahar hokimi qaror qabul qiladi, farmoyishlar chiqaradi.

Mahalliy Kengashlar vakolatlarga taalluqli har xil masalalarni, tegishli hududda ijro qilinishi majburiy bo'lgan hujjatlar qabul qilish bilan hal qiladilar. Ular qabul qilayotgan qarorlarni samaradorligi ularni sinchkovlik bilan tayyorlashga va tajriba ishlab chiqqan va qonunchilikda ko'rsatilgan ma'lum talablarni bajarilishiga ko'p jihatdan bog'liq .

**Birinchidan,** xalq deputatlari Kengashi va hokimni har bir qarori asoslantirilgan bo'lishi lozim, ya'ni ishonarli ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi lozim.

**Ikkinchidan,** Kengash va hokimning qabul qiladigan har bir qaror keng ma'noda tejamkor bo'lishi shart. Birinchi navbatda u haqiqatdan ham zarur bo'lib qolganda chiqarilishi kerak.

Kengash va hokimlik qarorlari ularning sessiyalari va majlislarida yetarli sondagi deputatlar qatnashganda, qarorlar ovozga qo'yilganda ovozlarni mo'ljallagan ko'pchiligi bilan qabul qilinishi, to'g'ri rasmiylashtirilishi va imzolanishi, ijrochilarga ko'rsatilgan muddatlarga yuborilishi lozim. Qarorlarni hayotiyli va tejamkorligini ta'minlash uchun loyihalarni tayyorlashda qarorlar qabul qilish tartibini bildirgan mutaxassislar va manfaatdor tashkilotlar jalb qilinishi deputatlarni jamoatchilikni quyidagi turuvchi organlarini fikr va mulohazalarini e'tiborga olinishi muhim.

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar, ya'ni qarorlar va farmoyishlar ular imzolangan

vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Manfaatdor organ yoki shaxslarga qarorlar nusxasi yoki undan ko'chirma yuboriladi. Agarda qabul qilingan hujjat muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ma'lum joydagi aholiga bevosita aloqador bo'lsa, u to'g'risida hamma fuqarolar tanishtirilishi shart. Bunday hujjatlar hokimlik xodimlari doimiy komissiyalar tomonidan radio, mahalliy matbuot, e'lonlar rahbarlarni chiqishlari orqali aholiga yetkaziladi. Deputatlar o'z saylov okruglarida ham shu ishni amalga oshiradilar.

Qarorni ijro qilish uchun ko'p hollarda hokimning o'z vaqtida bergan farmoyishi zarur bo'ladi. Mansabdor shaxslar tomonidan zarur moddiy-texnika va moliyaviy mablag'larni kechiktirmasdan ajratilishi juda muhim.

Jamoatchilik, mehnatkashlarni qarorning ijrosiga jalb qilinishi kengashning bosh vazifalaridan biri. Mehnatkashlarni u yoki bu tadbirlarni amalga oshirishga jalb qilishning shakli, eng avvalo, mahalliy sharoit tadbirlarning xususiyati bilan belgilanadi. Qarorlarni ijro qilishga doimiy komissiyalar, kasaba uyushmalar va deputatlar har xil jamoatchilik organlari jalb qilinishlari mumkin.

Kengashlar va hokimliklar faoliyati ijroni tashkil etish, ijroni tekshirilishi bilan uzviy bog'langan. Tajribada ijroni tekshirishning har xil shakl va uslublari qo'llaniladi.

Kengashlar va hokimlar ham davlat organlari qo'llayotgan nazoratni amaliy vositasi joylardagi ishning ahvolini tekshirish va o'rganishni, tekshirilayotgan korxonalar va tashkilotlarga amaliy yordam berish bilan qo'shib olib borishdir. Kompleks tekshirishda bir yoki bir necha korxonalar, tashkilot yoki muassasa yoki hokimlik apparati bo'lim boshqarmalarining ishi tekshirilganda har tomonlama o'rganib chiqiladi. Tematik tekshirish yoki o'rganishlar, qandaydir bir masalani o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Qarorning ijrosini tekshirish, mehnatni tashkil qilish fuqarolarni ariza yoki xatlarni ko'rib chiqish holatlari bo'lishi mumkin.

Qarorlarning ijrosi ustidan nazoratni to'g'ri yo'lga qo'yilishiga qarorlar ijro qilinganligini hokimlik apparatida uning bo'lim va boshqarmalarida, doimiy komissiyalar aniq hisobga olinishi yordam beradi. Shu maqsadlarda hokimiyat devonida maxsus kitob yuritiladi. Unda Kengash qarori, hokimning qaror va farmoyishi, hujjatning tartib raqami, qabul qilingan vaqti, nomi va yuborilgan kuni ro'yxatga olinadi. Hokimiyatlarda ma'lum maqsadga mo'ljallangan kartoteka ham bor, unda qarorlarning amalga oshirilishi qayd qilib boriladi. Qarorning ijrosi kim ekanligi, ijroni muddati amalga oshirilishi natijalari ko'rsatiladi. Qaror ijro qilinib bo'lingach, shu sohaga rahbarlik qiluvchi hokimiyat apparati rahbarlarining ko'rsatmasi bilan nazoratdan olinadi va shu haqda kartochkada qayd qilinadi.

Viloyat, tuman va shahar hokimliklarida, ijroni tekshirish, odatda, umumiy bo'lim, tashkiliy-instruktorklik bo'limlarining instruktorklari, rais yordamchilari tomonidan hisobga olinadi. Lekin ijroni hisobga olishga umumiy rahbarlikni hokim, uning o'rinbosarlari, kotibiyat boshlig'i amalga oshiradi. Bo'lim va boshqarmalarda esa ijroni nazorat qilish bo'yicha hujjatlarni olib borish bir xodimga topshiriladi. Doimiy komissiyalarda ham shunga o'xshash, hujjatlarni olib borish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan ba'zi hokimliklarda, masalan Toshkent shahrida qarorlarni hisobga olish, uning ijrosini nazorat qilish zamonaviy hisoblash vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni bilan belgilangan vakolatlari, asosan Kengash sessiyalarida ko'rib chiqib hal qilinadi. Sessiyalarning mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida yetakchi ahamiyatining muhim yuridik kafolati shundan iboratki, xalq deputatlari Kengashlari "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga, atrof muhitni muhofaza qilishga doir o'z vakolatlariga berilgan masalalarni, tashkiliy masalalar va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq nazorat qilishga doir boshqa masalalarni hal etishdan iborat.

Mahalliy Kengash sessiyasida ko'rib chiqish uchun masalani tanlab olishda keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasidagi mahalliy Kengashlar ish tajribasida keng tarqalgan Kengash faoliyatining kompleks rejasiga rioya qilish diqqatga sazovordir. Sessiyalar ahamiyatining oshishi, sessiya ishi, Kengash ishi ahvoliga ta'siri samaradorligini oshirish, deputatlar faolligini oshishi va Kengashni aholi bilan aloqasini mustahkamlashga xizmat qiluvchi yangi shakllarni qidirib topish bilan bog'liq.

Xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarining samaradorligini oshirishda sayyor sessiyalarining ahamiyati katta. Sayyor sessiya tegishli hokimiyat hududidagi aholi punktlarida, Kengash va hokimiyatga bo'ysunadigan korxonalar va muassasalarda o'tkazilmoqda. Deputatlar va sessiyaning boshqa ishtirokchilari kun tartibiga kiritilgan masala bo'yicha ahvol bilan joylarni o'zida tanishadilar, manfaatdor tomonlar bilan muloqotda bo'ladilar. Sayyor sessiyalar ishida fuqarolarning, mutaxassislarning ishtirok etishi uchun imkon yaratib berilgan.

Mahalliy Kengash sessiyasi kun tartibi loyihasini hokimiyat tayyorlaydi. Hokimiyat uni tayyorlashda ish rejalarini, yuqori turuvchi organlar ko'rsatmalari, saylovchilarni taklif va mulohazalariga doimiy komissiyalar, deputatlar, bo'lim va boshqarmalarni, jamoat tashkilotlarini takliflarini e'tiborga oladi. Bu esa muhokama qilish uchun, haqiqatan ham yetilgan dolzarb masalani tanlab olishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalarining faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni va komissiyalar to'g'risidagi nizomlar asosida

tashkil etiladi. Doimiy komissiyalar to'g'risidagi nizomlarni Kengashlarning o'zlari qabul qiladilar. Doimiy komissiyalar deputatlarni Kengash vazifalarini bajarishda ishtirok etishi uchun tuziladi va ular faoliyatining asosiy shakllaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Komissiyalarning o'ziga xosligi eng avvalo shundaki, ular orqali deputatlar sessiya o'rtasidagi davrda boshqarish faoliyatiga bevosita faol va doimiy jalb qilinadi. Doimiy komissiyalar- mahalliy Kengashlarning yordamchi ishchi organlari bo'lib, ko'pchilik deputatlarni ko'p sonli faollarni birlashtiradi va jamoatchilik asosida ishlaydi. "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga 60 tadan, tuman va shahar Kengashlariga 30 tadan deputat saylandi. Bu holat albatta shu Kengashlarda tuziladigan doimiy komissiyalar soniga ta'sir o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasidagi mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, doimiy komissiyalarni ahamiyati doim oshib bormoqda. Ular mahalliy Kengashlarning ommaviy nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotchi organlardir.

Xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalarining vazifalarining asosiylari «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunining 19-moddasidan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasidagi mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari faoliyati tajribasi ularning yangidan-yangi vazifalarini ham amalga oshirayotganliklarini o'zida ko'rsatadi.

Doimiy komissiyalarning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: Kengash va hokimiyat ko'rib chiqishi uchun takliflar ishlab chiqish, Kengash va hokimiyat ko'rib chiqish uchun kiritilgan masalalar bo'yicha xulosalar tayyorlash; Kengash, hokimiyat va yuqori organlarning qarorlarini amalga oshirishdagi tashkiliy ishda ishtirok etish; saylovchilarning murojaatlarini amalga oshirilishida va uning ijrosini nazorat qilishda ko'maklashish; Kengash

qarorlarini amalga oshirish bo'yicha hokimiyat bo'lim va boshqarmalarini, korxonalar, tashkilot va muassasalar faoliyatining nazorat qilinishida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga, qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilishdir.

Hamma mahalliy Kengashlar tomonidan tuziladigan mandat komissiyalarining vazifalari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ular funksiyalariga deputatlar vakolatlarini tekshirish, Kengashga deputatlarning vakolatini to'g'ri deb topish yoki ayrim deputatlar o'rniga yangidan saylov o'tkazish to'g'risida taklif kiritish; chaqirib olingan deputatlar o'rniga yangidan saylov o'tkazish masalalari bo'yicha taklif va deputatlar daxlsizligi, deputatlarni chaqirib olish hamda deputatlik vakolatlarini soqit qilish haqidagi arizalar bo'yicha xulosalar tayyorlash kiradi. Deputatlik vakolatlarini tekshirish va deputatlik maqomi masalalari bilan bog'langan funksiyalaridan tashqari deputatlarni saylov okrugidagi faoliyatidan, ularni saylovchilar oldidagi hisobotlaridan xabardor qilib turishni topshirish ham ular faoliyatining tarkibiy qismidir.

Doimiy komissiyalar bevosita mahalliy Kengash rahbarligida ishlaydi, ularga bo'ysunadi va hisob berib turadi. Faqatgina Kengash ularga ijrosi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berishi mumkin, ular hisobotlarni eshitish, komissiya tizimi va tarkibini o'zgartirishi mumkin. Bundan tashqari doimiy komissiyalar sessiyalarda, sessiyalar o'rtasidagi davrda qilingan ish haqida muntazam axborot berib boradilar.

Doimiy komissiyalarni tashkil qilish tartibi va tarkibi doimiy komissiyalar har bir yangi chaqiriq xalq deputatlari Kengashlarining birinchi sessiyalarida, ularning vakolatlari davriga saylanadi. Lekin Kengash doimiy komissiyalari tizimi va tarkibiga keyingi sessiyalarda ham o'zgartirishlari mumkin. Xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlangan doimiy komissiyalar haqidagi Nizomlarda ularning tarkibiga faqat deputatlar saylanishi ko'zda tutilgan.

Doimiy komissiyalarning Kengash sessiyalariga va hokimiyat majlislariga masalalarni tayyorlash va uni ko'rib chiqishdagi ishtiroki doimiy komissiyalar Kengashlari boshqarishni tarmoqlari bo'yicha mutaxassislashayotgan ommaviy organlar sifatida Kengash sessiyalarida va hokimiyat majlislarini tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Sessiya kun tartibi loyihasini tayyorlaganda hokimiyat doimiy komissiyalar taklif va mulohazalarini, uning ish rejasini e'tiborga olishi yaxshi natija berdi. Doimiy komissiyalar o'z navbatida o'zlariga topshirilgan sohalardagi ishni ahvolidan yaxshi tanish bo'lganlari uchun, Kengash oldida eng dolzarb va yetilgan masalalarni qo'yishlari lozim, chunki pirovard natijada Kengash ularni hokimiyat ish rejalariga kiritadi.

Doimiy komissiyalarni Kengash sessiyasiga masalalarni tayyorlashdagi ishtirokning asosiy shakllari, bular korxonalar, tashkilot muassasalardagi ishning ahvolini o'rganish va tekshirish, tegishli masalalarga aholini oldindan muhokamasiga kiritish, to'plangan materiallarni umumlashtirish, ma'lumotnomalar tuzish, qaror loyihasi bo'yicha xulosa va takliflar kiritish, masala komissiya tomonidan tayyorlanayotgan bo'lsa, qarorni loyihasini tayyorlash, ma'ruza, qo'shimcha ma'ruza yoki sessiyada so'zga chiqishni tayyorlashdan iborat.

Doimiy komissiyalarning huquqlarining kengaytirilishi, ularni tashkiliy va nazorat faoliyatini faollashishi hokimiyat faoliyatida ham ularni keng ishtirok etishini belgilaydi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik idorasi bo'lib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga rahbarlik qiladilar. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari hududlar bo'yicha tuziladi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari saylovini o'tkazish tartibi «O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari saylovi» haqidagi Qonun bilan belgilanadi. Xalq

deputatlari mahalliy kengashlariga shaharlardagi tuman, shahar, tuman va viloyat Kengashlari kiradi.

1994 yil 25 dekabrda Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorgi Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari katta tayyorgarlik ko'rdilar.

Toshkent shahrida Oliy Majlisga saylov o'tkazuvchi 30 ga okrug, Xalq deputatlari shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi 60 ta okrug tuzildi. Qonunda belgilangan tartibda va tavsiya etilgan vaqtda kalendar rejasiga asosan Oliy Majlisga saylov o'tkazuvchi 30 ta saylov Komissiyasi va shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi 60 ta saylov komissiyasi tashkil etildi

Saylov komissiyalari tarkibiga sanoat korxonalar, jamoat tashkilotlari, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash xodimlari va mahalla yig'inlari vakillaridan iborat 810 kishi jalb etildi<sup>17</sup>.

Andijon viloyatida ham konunlarga to'la rioya qilingan holda saylovga puxta tayyorgarlik ko'rildi. Oliy Majlisga viloyat, **tumai, shahar** kengashlariga munosib nomzodlar kursatiladi. Ular orasida olimlar. huquqshunoslar, iqtisodchilar, vrachlar. o'kituvchilar. ishchi-xizmatchilar bor edi. Namangan viloyatida ham boshqa joylarda bo'lganidek, deputatlikka nomzodlar ko'rsatish demokratik prinsiplarga amal qilingan holda olib borildi. Bu jarayon siyosiy partiyalar, hokimiyat vakillik organlari ishtirokida, muqobillik asosida amalga oshirildi. Shuni ta'kidlash kerakki, viloyat hokimligi siyosiy partiyalar hamda hokimiyat organlari o'rtasida o'zaro hurmat va ijodiy fikrlashuvlar bo'lishiga katta e'tibor berdi. Siyosiy partiyalarning saylovlarda teng asoslarda ishtirok etishini ta'minlash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berildi.

---

<sup>17</sup> Мустақил Ўзбекистон тарихи. –Т., “Шарқ”, 2000, 108 бет

Natijada viloyatlar, tumanlar va shaharlarda vakillik organlari bo'lmish Xalq deputatlari Kengashlariga xalqning munosib farzandlari saylandilar.

## **2-bob. Samarqand viloyati mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati**

### **2.1. Viloyat mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududiy ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga qilgan rahbarligi**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda keng ko'lamda ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar amalga oshirildi. Bu islohatlardan maqsad har tomonlama barqarorlik ta'minlangan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iborat bo'ldi.

Ma'lumki mustaqillikning dastlabki yillarida SSSRning parchalanib ketishi, an'anaviy xo'jalik aloqalarining buzilib ketishi natijasida moliyaviy va xom ashyo zaxiralarining nihoyatda taqchilligi yuz berdi. Bu holat Samarqand viloyatini ham chetlab o'tmadi. Masalan; boshqa mintaqalar va mamlakatlardan mahsulot yetkazib berishga bog'langan «Kinap», «Krasniy dvigatel», «Gelion», «Lift qurish» kabi yirik zavodlar to'xtab qolish darajasiga kelib qoldi. Buning ustiga aholining mlddiy ahvoli ancha pastlashdi. Oziq-ovqat mahsulotlari, dori darmonlarning muhim turlari chetdan olib kelinishi tufayli bir muncha qiyinchiliklarga duch kelindi.

O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda MDH davlatlarining aksariyatiga nisbatan ancha noqulay sharoitda edi. Buni quyidagi omillar belgilab berdi.

1) O'zbekiston mustamlakachilik yillarida yeafaqat qishloq xo'jaligi, balki sanoat xom ashyosi yetkazib beradigan o'lkaga aylangan edi. Respublika mashinasozlik korxonalarini uchun butlovchi qismlar esa boshqa respublikalardan olib kelinar edi. Shu sababli iqtisodiyotimizda chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirish lozim edi. Bu esa o'z navbatida ham vaqt ham katta investisiyalar ajratilishini talab qilardi.

2) O'zbekiston dengiz yoshligiga ega bo'lmaganligi sababli tovar import va eksportida katta qiyinchiliklarga duch keldi.

3) Transport va infratuzilma kommunikasiyalari ehtiyojlaridan kelib chiqib tuzilgan edi. Bu kommunikasiyalarni respublika ehtiyojlariga moslab qaytadan shakllantirish lozim edi.

4) Respublika sanoat korxonalaridagi injener texnik kadrlarning aksariyati rusiy zabon aholi vakillari edi. Ularning kattagina qismi Sobiq ittifoq tarqagach Rossiyaga jo'nab keta boshladi. Natijada ayniqsa dastlabki yillarda yuqori malakali kadrlar **defesiti** paydo bo'ldi

5) Balog'at yoshiga yetmaganlar respublika aholisining qariyb yarmini tashkil qilar edi. Buning ustiga sovet hokimiyatining oxirgi yashrinchaishsizlik muammosi vujudga kelgan edi.

Bu muammo va qiyinchiliklar Samarqand viloyatini ham chetlab o'tmagan edi. Shu sababli prezident I.A.Karimov ishlab chiqqan ijtimoiy islohatlar strategiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlari jumladan, samarqand viloyati hokimliklari oldiga konkret va ma'suliyatli vazifalar qo'yilgan edi. Bu vazifalardan eng muhimi hududdagi iqtisodiy islohatlarga rahbarlik qilish va aholi ijtimoiy himoyasi masalalari bilan shug'ullanishdan iborat edi.

Ijtimoiy islohatlar jarayonidagi eng muhim yo'nalish bu makroiqtisodiy barqarorlikka erishish edi. Bu esa o'z navbatida chuqur tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab qilar edi. Respublika iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, importni qisqartirish, eksportga va ichki bozorga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, shuningdek istiqbolni belgilaydigan ustivor tarmoqlarni jadal rivojlantirish, tarmoqlar ichidagi nomutonositlikka barham berishga e'tibor qaratildi. Banklar kredit mablag'larining 70 % idan ortig'i ishlab chiqarishga yo'naltirildi. Chet el investisiyalarini jalb qilishda eng qulay sharoit ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kapital mablag'larga yaratildi.

Natijada xalq iste'moli mollarini chetdan keltirishdan voz kechib, O'zbekistonning o'zida ishlab chiqarishga katta e'tibor berildi.

Samarqand viloyati respublikamizning yetakchi viloyatlaridan biri hisoblanadi. 2013 yilning boshida viloyatda 3 mln 326 ming kishi istiqomat qilayotgan edi<sup>18</sup>. Viloyat salohiyatining kattaligi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan e'tiborning kuchayishini belgilab berdi. Bu e'tibor investisiyalar miqdorini oshishida, keng ko'lamdagi sanoat qurilishining avj olishida o'z aksini topdi. O'zBAT, SamAvto, Samjinteks, GB MAN Uzbekistan kabi korxonalarining ishga tushirilishi, sino, 8 mart, Bofanda kabi korxonalarining rekonstruksiya qilinib, yangi texnologiyalar o'rnatilishi ana shundan dalolat beradi.

Viloyat miqyosida amalga oshirilgan tadbirlar, butun respublikamizda bo'lgani kabi 1996 yildayoq iqtisodiyotimizdagi barqarorlikni ta'minlaydi<sup>19</sup>. Ana shu davrdan e'tiboran yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning o'sish davri boshlandi.

O'sish sur'atlari yildan yilga oshib bordi. 1996-200 yillarda 4 yiliga 2-4% dan oshmagan bo'lsa 2011 yilga kelib yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish 2010 yilga nisbatan 10,9 % ga ko'paydi. Xuddi shu davr mobaynida qishloq xo'jaligi 7,7 %, qurilish pudrat ishlari 30,6% chakana savdo 16,9%, jami xizmatlar hajmi esa 17,3% ga o'sdi. Korxonalarda modernizatsiya va texnologik qayta jihozlash maqsadlari uchun jami 576 mlrd so'mlik investisiyalar jalb etildi. Bu umumiy investisiyalarning 51, 7% ini tashkil qildi. Birgina sanoat sohasini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar doirasida viloyatda 71 mln dollarlik 255 ta loyihalar amalga oshirilib 1197 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. 2011 yilda hududiy tasarrufdagi korxonalar tomonidan 99,3 mln dollarlik mahsulot va xizmatlar eksport qilindi va o'sish sur'ati 19 % ni tashkil etdi<sup>20</sup>.

---

<sup>18</sup> Viloyat hokimligining joriy arxivi. Viloyat hokimi Z.T.Mirzaevning ziёlilar bilan 2012 yil yakunlari va 2013 yil rejaları yuzasidan uchrashuvi. 1-sahifa

<sup>19</sup> Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т."Шарқ", 2000, 319 бет

<sup>20</sup> Viloyat hokimligining joriy arxivi. Viloyat hokimi Z.T.Mirzaevning "Iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy faollik faravonlikni ta'minlaydi" mavzusidagi 2012 yil 2 fevraldagi ma'ruzası 1-2 betlar

Chet el investisiyalari va kredit mablag'larining jalb qilinishi viloyat sanoatida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi

2008-2012 yillar mobaynida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,3 martaga oshdi. 2011-2012 yillarda 246 ta yangi sanoat korxonalari ishga tushirilib, 9000 ga yaqin ish joylari yaratildi.

Viloyatda turli dasturlar doirasida yirik sanoat korxonalarini qayta tiklash, ularning quvvatlarini oshirishga alohida e'tiborga qaratildi. Masalan 13 yil davomida faoliyati umuman to'xtab qolgan «8 mart» aksionerlik jamiyati korxonasi 4 mln dollar mablag' evaziga Yaponiyadan zamonaviy dastgohlar keltirib o'rnatildi. Natijada 430 xotin-qiz ish bilan ta'minlandi. Bir yilda ishlab chiqarish hajmi 6,5 mlrd so'mga yetdi. 1 mln dollarlik mahsulot eksport qilindi. Shuningdek oxirgi 7 yilda umuman ishlamagan Samarqand chinni zavodiga 10 mln dollar investisiya kiritildi va 870 nafar ish o'rnini tiklandi va Fransiya texnologiyasi asosida chinni mahsulotlari ishlab chiqarila boshlandi. Bulardan tashqari 2012 mahalliy hokimiyat organlari rahbarligida viloyatda 2012 yilda yengil sanoat sohasida 89 ta loyiha amalga oshirildi, 14,3 mlrd so'm investisiyalar jalb qilinib, 234 ta ish o'rinlari yaratildi. Masalan; bulung'ur tumanidagi sobiq Bulung'ur vino zavodiga tadbirkorlar tomonidan jalb qilinib, «Bugatti Shoesi» korxonasi tashkil etildi. Shu asosida 400 ming juft poyabzal ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin: Vostok produkt korxonasi 9 mlrd so'mlik investisiya kiritilib 2000 tonna paxta tolasini qayta ishlab, ip kalava ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi; Bofanda (Sobiq tirikotaj fabrikasi) korxonasi Koreyaning yetakchi kompaniyasi bilan loyiha qiymati 11 mln dollarlik trikotaj va tayyor tikuv mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasining 1-bosqichi amalga oshirildi va 1000 dan ortiq ish o'rinlari yaratildi.

Viloyat tashqi iqtisodiy faoliyatida ham izchil o'zgarishlar kuzatildi. 2005 yilda viloyatda qo'shma korxonalar soni 150 ta bo'lsa, 2013 yil boshiga kelib ular 228 tani tashkil qildi.

2005 yilda viloyatning 128 korxonasi 109 ta, 2013 yilda esa 450 korxonalar 125 ta mamlakat bilan iqtisodiy munosabatlar o'rnatdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2012 yilda 503,6 mln dollarni tashkil qilib, 2008-2012 yillar davomida 1,5 barobar oshdi. Eksport hajmi 2006 18,3 mln dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda 98 mln dollarga yetdi yoki 4,8 marta ko'paydi. Eksportning asosiy qismi Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Eron, Ukraina, Iroq, Avstraliya, AQSh, Xitoy, Virjiniya orollari, Moldava kabi davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. 2013 yil boshida viloyatda 22568 ta turli xildagi xizmat ko'rsatish va servis sohalari faoliyat ko'rsatdi. Viloyatda yaratilgan ish o'rinlarining asosiy qismi ham aynan shu soha hissasiga to'g'ri keldi. Faqat 2012 yilning o'zida 760 ta shahobcha tashkil qilinib, 2200 ga yaqin ish joylari yaratildi. Prezident qaroriga asosan viloyatda alohida sariq rangli va maxsus davlat belgisiga ega bo'lgan 1516 taksi aholi xizmatiga kiritildi.

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohatlar ham o'z samarasini berdi. Kolxozlar borasida dastlab ijara va dehqon xo'jaliklari tuzildi. Keyinchalik fermerlik harakati rivojlana boshladi. 2000 yillarning boshlarida viloyatda 19116 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatdi. 2008 yilda o'tkazilgan optimizatsiyasida fermer xo'jaliklarning soni 11393 taga kamayib, 7723 tani tashkil qildi.

2005 yilga nisbatan 2012 yilda fermer xo'jaliklarida daromad 6,8 barobarga, rentabellik ko'rsatgichi esa 10 foizga oshdi. Olingan daromadlar hisobidan 2005-2012 yillar mobaynida fermer va boshqa qishloq xo'jaligi bilan bog'liq korxonalariga turli rusmdagi zamonaviy texnologiyalar xarid qilindi.

2013 yil boshida viloyatda 161 ta «Magnum», 176 ta «Keys», 824 ta haydov, 4651 ta chopiq va 10949 ta transport traktorlari bor edi.

Viloyatda aholi uchun uy-joy qurilishiga katta e'tibor berilmoqda. 2009-2011 yillarda na'munaviy loyihalar asosida 1405 ta uy eoy qurildi. 2012 yilda Samarqand shahrida 384 xonadonga mo'ljallangan 12 ta ko'p qavatli uylar qurilishi boshlandi. Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlarida, tumanlar markazlarida katta obodonchilik ishlari amalga oshirildi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar aholi turmush farovanligi va daromadlarining oshishiga olib keoldi. 2012 yilning oxirida samarqand viloyatida har 100 oilaga o'rtacha 132 ta televizor, 99 ta xolodilnik, 19 ta kondisioner, 17 ta shaxsiy kompyuter va 34 tadan yengil avtomobil to'g'ri keldi. Faqat 2012 yilning o'zidagina viloyat aholisiga 22000 avtomobil sotildi<sup>21</sup>.

«Boshqaruv vazifalarining asosiy qismini markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar-tumanlardagi davlat va boshqaruv idoralariga o'tishni ta'minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'z-o'zini boshqarish jamoatchilik tashkilotlariga ham e'tibor beradi» degan edi Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 23-24 fevralda bo'lib o'tgan birinchi sessiyasida. Bu yo'l bevosita mamlakatimizda fuqarolik jamiyati shakllanishi va fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish tamoyilining bosh yo'nalishiga aylanib qoldi. Bu vazifani uddalashni asrlar davomida shakllangan o'z-o'zini boshqarish organi mahallasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Mahalla o'zini o'zi boshqaruvi amaliyoti hamda fuqarolik jamiyatini qurish tamoyillaridan kelib chiqib, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich davlat hokimiyati vazifalari o'tkazib kelinmoqda. Bu amaliyot hayot tajribasida o'zini to'la oqlamoqda.

---

<sup>21</sup> Вилоят ҳокимлигининг жорий архиви. Вилоят ҳокими З.Т.Мирзаевнинг зиёлилар билан 2012 йил якунлари ва 2013 йил режалари юзасидан учрашуви маълумотлари. 2-7 саҳифалар

Endilikda davlat o'z vazifalarini, vakolatlarini hokimiyatni kuchaytirish hisobiga yemas, balki demokratik omillarni kengaytirish va keng xalq ommasini boshqarishga jalb yetish yo'li bilan amalga oshirish yo'lida faol ish olib borilmoqda.

Mahalla faoliyatida aholini ijtimoiy himoya qilish muhim o'rinni egallaydi. Prezidentimiz I.A. Karimov "Biz bozor munosabatlariga yaqinlashgan sayin ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilish choralari hamda vositalari o'zgarib borishi kerak, degan muxim saboq chiqarib oldik." – degan yedilar.

Amaliyot va tajribalar tahlili aholining turli qatlamlariga qat'iy tabaqalashtirilgan tarzda yondoshib, yalpi ijtimoiy ximoyalash tizimidan, ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini aniq maqsadli hamda manzili ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga o'tish maqsadga muvofiq yekanligini ko'rsatdi.

Shunga binoan, 1994 yil 23 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida"gi 938-son Farmoni qabul qilindi.

Kam ta'minlangan oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam aholini davlat tomonidan ijtimoiy himoyalashning butunlay yangi turi sifatida mamlakat ijtimoiy himoya siyosatida birinchi marotaba joriy qilindi. Joriy yetilgan ijtimoiy himoyaning yangiligi shundan iborat bo'ldiki, unda muayan oilani kam ta'minlangan deb topish masalasini mahalla, qishloq, ovul fuqarolarining yig'ini mustaqil ravishda belgilaydigan va ana shu oilaga moddiy yordam tayinlaydigan bo'ldi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari 1994 yilning 1 oktyabridan boshlab har oylik to'lovlar tarzida moddiy yordam ko'rsatishni amalga oshira boshlashdi. Shu bilan mahalla fuqarolar yig'inining ijtimoiy himoya faoliyati shakllanishiga dastlabki qadamlar qo'yildi.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda bolali oilalarga davlat yo'li bilan madad berishni kuchaytirish, bunda qonuniylik, ijtimoiy adolat va oshkoralikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb yetadi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 10 dekabrda "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi 1657-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 10 dekabrda 437-sonli qarori 2002 yil 25 yanvardagi 33-son qarori tahririda bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar tayinlash va to'lash to'g'risida"gi Nizom qabul qilinib, bolali oilalarga ijtimoiy yordamning aniq berilishini kuchaytirish va aholini ijtimoiy himoyalashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida, mazkur Farmon va Nizom asosida 16 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalarni shunday nafaqaga muhtoj oilalargagina berish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 25 yanvardagi "Aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida"gi Farmoni ijtimoiy himoya siyosatining navbatdagi qonuniy ifodasi bo'ldi. Unga ko'ra, bolasi ikki yoshga to'lgunga qadar uni parvarish qilish bo'yicha ishlamaydigan onalarga mahallalar orqali beriladigan oylik nafaqalar miqdori 2002 yil 1 fevralidan boshlab yeng kam ish haqining 170 foizi, 2003 yilning 1 yanvaridan boshlab yesa, 200 foizi miqdorida belgilandi. Shuningdek, 16 yoshgacha bolalari bo'lgan nafaqa oluvchi oilalar toifasi kengaytirilib, umumta'lim maktablarida, akademik lisey va kasb-xunar kollejlarda o'qiydigan 18 yoshgacha bolalari bo'lgan muxtoj oilalar ham shu toifaga qo'shimcha ravishda kiritildi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash komissiyalari samaradorligini oshirish uchun quyidagi asosiy qoidalarga amal qilina boshlandi:

- ijtimoiy adolatga so'zsiz qat'iy rioya qilish;

- ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamning manzilli bo'lishi, haqiqatdan muhtoj oilalarga berilishini ta'minlash;

- oilalar va fuqarolar tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish choralariga boqimandalarcha yondoshishga yo'l qo'ymaslik;

- oila a'zolarining, ayniqsa bolalarning moddiy farovonligini oshirishda oila mas'uliyatini oshirish, har tomonlama jismoniy va ma'naviy rivojlanish, bilim va kasb-hunur darajasini oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish.

Oilalar va fuqarolar tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish choralariga boqimandalarcha yondoshishga yo'l qo'ymaslik qoidasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da ko'rsatilganidek mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish lozim. Buning uchun:

1. Mahalla aholisining manfaatlarini yana ham to'liqroq ta'minlash maqsadida qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlash.

2. Mahallada ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish asosida turmush sifatini va bandlik darajasini oshirish.

3. Odamlar sog'ligini muhofaza qilishni yaxshilash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, uning darajasi va sifatini oshirish kerak bo'ladi.

Fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalari tarkibi asosan mahalla hududidagi faol, hayotiy tajriba va obro'-

ye'tibor, hurmatga yega bo'lgan fuqarolardan va zarur hollarda mahalliy davlat hokimiyati idoralari vakillaridan iborat bo'ladi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlarida respublikamizning barcha fuqarolar yig'inlarida taftish, yarashtirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash komissiyalarining faoliyat olib borishlari belgilab qo'yilgan. Ushbu komissiyalar faoliyati bilan bog'liq masalalar har bir mahallaga xos bo'lishi bilan birga doimiylik xarakteriga ham egadir.

Mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarni aniq belgilash hududiy jamoalar faolligining oshishi, umuman, ommaviy boshqaruvning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy ahamiyatga yega bo'lgan manfaatlari va yehtiyojlarining siyosiy hokimiyat vositasida amalga oshirilishi<sup>22</sup> hokimiyat munosabatlarini aniqlashtirish zaruratini belgilab beradi. Chunki O'zbekiston qonunchiligida ommaviy hokimiyat tushunchasining mavjud yemasligi, davlat va mahalliy hokimiyatlarning bir-biridan ajratilmaganligi, o'zini-o'zi boshqarish organlarining jamoat tashkilotlari sifatida ye'tirof yetilishi<sup>23</sup> ular bilan mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi munosabatlarning nazariy va amaliy jihatlarini murakkablashtiradi.

Hamma sanab o'tilgan normalar O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruvi va davlat hokimiyatining o'zaro munosabat modelining mustahkamlanishida u yoki bu darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish nazariyasini o'zini-o'zi boshqaruvda "jamoat" va "davlat" tabiatining birikuvini nuqtai nazaridan tahlil qilish kerak (fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvda dualistik nazariya). Agar fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvi davlat vazifalarini hal qilishdan ozod qilinsa, u haqiqiy jamoaviy institut bo'lib qoladi, davlatning mahalliy darajadagi masalalarini

---

<sup>22</sup> Пронин Э.А. Политология. Конспект лекций. –М.: МИЭМП, 2005. С.7.

<sup>23</sup> Умарова Г. Махалла – ижтимоий бошқарув органи // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2-3/2007. Б.78.

hal qilish uchun hokimiyat tizimining hududiy “o’rinbosari” vazifasini tashkil etishi kerak, bu esa iqtisodiy jihatdan samarali emas. Agar o’zini-o’zi boshqaruv davlat hokimiyatiga to’la qaram bo’lsa, bunda fuqarolar o’zini-o’zi boshqaruviga ega bo’la olmay qoldi. Bunda mahalliy masalalarni hal qilish bo’yicha aholining mustaqil faoliyatini ta’minlovchi xalq hokimiyatining shakli va mohiyati yo’qoladi. Davlat tomonidan qo’yilgan vazifalarni samarali hal qilish mahalliy darajadagi davlat boshqaruviga yuklatilgan taqdirda, alohida olingan hudud aholisi manfaati yetarli ye’tiborga olinmaydi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisida Prezident Islom Karimov “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ma’ruzasida ta’kidlaganidek, «Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko’lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o’zaro yaqin munosabatlarini ta’minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda»<sup>24</sup>.

Davlat hokimiyati va fuqarolar o’zini-o’zi boshqaruv munosabatlarini amalga oshirishdan maqsad tashkiliy demokratik tamoyillarni rivojlantirib ham davlat, ham mahalliy manfaatlardan kelib chiqqan holda fuqarolar o’zini-o’zi boshqaruvni yo’lga qo’yishni ta’minlashdan iborat.

Shunday qilib, mustaqillik tamoyili ye’lon qilingan sharoitda davlat va fuqarolar o’zini-o’zi boshqaruvning o’zaro aloqalari ta’sirchan mexanizmini vujudga keltirish hanuzga qadar va bugungi kunda ham yeng dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda.

Hokimiyatning har bir darajasi o’ziga xos xususiyatlarga yega bo’ladi. Davlat hokimiyati organlari davlat ahamiyatiga yega bo’lgan masalalarni hal

---

<sup>24</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. – Т.: «Ўзбекистон», 2010. Б.45.

qiladi; fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari mahalliy ahamiyatga yega bo'lgan masalalarni hal qiladi. Bu hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatish doirasi har xil: davlat hokimiyati butun mamlakat hududini qamrab oladi, fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruv hokimiyati aniq o'z hududi bilan chegaralangan bo'ladi. Aynan davlat fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvning umumiy tashkiliy tamoyillarini belgilaydi va xuddi shuning o'zi fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish bilan o'zaro munosabat modelini shakllantiradi. Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish davlat hokimiyatiga bog'liq, u davlat hokimiyati tomonidan belgilab berilgan darajada mustaqillikka ega bo'ladi.

Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruviga berilgan mustaqillik davlatning yagona iqtisodiy, ijtimoiy, g'oyaviy va boshqa siyosatlaridan o'zgacha mavjud bo'lishi mumkin yemas. Fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruv faoliyati davlat hokimiyati tizimidagi mavjud munosabatlardan va davlatdan mutlaqo mustaqil bo'la olmaydi. Fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvda davlatga xos ommaviylik xususiyatlari mavjud bo'lib, fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruv tabiatida bu holat yanada kuchaytiriladi. Fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruv tomonidan hal qilinadigan vazifalardan kelib chiqib, mazkur hokimiyatni davlatga xos, ammo alohida jamoa belgilariga yega, deb qabul qilish kerak<sup>25</sup>. Aynan shu mahalliy o'zini-o'zi boshqarish pirovardida, hokimiyat bilan yerkinlikning mushtarak birligi ta'minlanadi, tashqi (veritikal) boshqaruv va aholining ichki o'zini-o'zi tashkil yetish vujudga keltiriladi.

Shunday qilib, xuddi davlat hokimiyati kabi fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvi – bular yagona ommaviy hokimiyatning turli shakllari yekanligi, davlat boshqaruvi va fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruv mohiyat jihatidan turli ko'rinishdagi yagona ijtimoiy boshqaruvni tashkil yetishini ko'rish mumkin. Ularning faoliyatini ommaviy harakteri, ma'lum umumiylik uslublari

---

<sup>25</sup> Авакьян С.А. Конституционное право России: Учебный курс. Т. 1. М., 2006. С. 339.

birlashtirib turadi, ammo bunda fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvning alohida o'ziga xos tomonlari, ya'ni ular faoliyati ma'lum hududda yashayotgan aholiga yo'naltirilganligi, ayni vaqtda davlat o'z buyruqlarini, qoida tariqasida, subektlarning noaniq guruhi – fuqarolar, boshqa shaxslar va hokazolarga qaratgan bo'ladi.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari mahalliy ahamiyatga yega bo'lgan masalalarni mustaqil va o'z zimmasiga mas'uliyat olib hal yetadi, bunday holat fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvni davlat boshqaruvidan jiddiy farqini ko'rsatadi.

Shu bilan birga davlat boshqaruvi va fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruvi o'rtasidagi ma'lum o'xshashlikni ko'rish mumkin, ba'zi holatlarda ularni «ajratish» boshqaruvda samara bermaydi. Bu yeng avvalo, ijtimoiy sohada kuzatiladi. Binobarin, bu davlatning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari uchun o'ta muhim. *Masalan*, fuqarolar o'zini-o'zi boshqaruv “manzilli” yekanligi, aholiga, ijtimoiy himoyaga muhtoj obektlarga yeng yaqin turadi. Davlat bir qator holatlarda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari ishtirokisiz o'z vazifalarini samarali hal qila olmagan bo'lar yedi. *Masalan*, saylovlarda aynan fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari saylov kampaniyasi vaqtida saylovchilar hisobini yuritadilar, saylov komissiyasini bino bilan ta'minlaydilar, ovoz berish uchun tegishli joy hoziraydilar va h.k.

Endilikda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari davlat tomonidan bir necha vazifalar ijrosini ta'min etib kelmoqda. Bu vazifalar orasida ijtimoiy himoya bilan bog'liq chora-tadbirlar muhim o'rin tutadi. Kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularga moddiy yordam ko'rsatish, bolali onalarga nafaqa tayinlash, mahalliy homiylar ishtirokida muhtojlarga yordam berish kabi tadbirlar shular jumlasiga kiradi. Davlat byudjeti hisobidan to'lanadigan mablag'ni maqsadli yo'naltirish fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari zimmasidadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturi to'g'risidagi qarorida aholining nochor qatlamlari – muhtoj oilalar, nogironlar, yolg'iz qariyalarni aniq ijtimoiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash tadbirlarini ro'yobga chiqarishda mahallalar rolini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini amalda joriy yetish zarurligi alohida ta'kidlab o'tilgan<sup>26</sup>.

Demak, mahalliy ahamiyatga yega bo'lgan masalalarni hal yetishda davlat hokimiyati fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan uzviy hamkorlik qiladi, boshqacha aytganda biri ikkinchisiga bog'liq holda belgilangan vazifalarni ijro yetadi. Davlat hokimiyati aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun ajratgan mablag'ini fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organi ishtirokisiz muhtojlarga yetkazib bera olmagan bo'lar yedi. Bunga sabab ushbu mablag'ni tayinlash chog'ida aniq maqsad yo'lida foydalanish, oshkoralik va ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya yetish talabi qo'yilgan. Bu vazifalarni faqat fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari muvaffaqiyatli ijro yeta oladi. Chunki bu organ aholiga juda yaqin turadi, butun faoliyati davomida aholi bilan ishlaydi, har bir oila imkoniyatlarini yaxshi biladi. Qaysi oila qo'llab-quvvatlashga yohud ijtimoiy himoyaga muhtoj kimlar boqimandalik kayfiyatida yuradi – bularni mahalla mas'ullari va faollari aniq va ravshan biladi va ko'ra oladi. Faqat bugina yemas.

Aholining kam ta'minlangan, yakka-yolg'iz, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini tizimli ravishda kuchli ijtimoiy himoyalash, bu maqsadda davlat byudjetidan ajratilgan mablag'dan tashqari mahallaning ichki imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, tadbirkorlikni rivojlantirish va homiylarni jalb yetish yuzasidan mahallalarda tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'z mablag'lari va jalb yetilgan

---

<sup>26</sup> Каримов И.А. Мамлакатимиз таракқиёти ва халқимизнинг ҳаёт даражасини юксалтириш – барча демократик янгиланиш ва иқтисодий ислохотларимизнинг пировард мақсадидир. –Т.: Ўзбекистон. 2007. Б.100.

mablag'lar hisobidan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriya mablag'lari hisobidan moddiy madadga muhtojlarga har tomonlama yordam ko'rsatadi. Faqat 2012 yilning o'zidagina 1641 nafar keksa pensioner va nogironlarga jami 374 mln so'mlik turli xildagi moddiy yordamlar ko'rsatildi. Homiylik mablag'lari hisobidan 1303 nafar kam ta'minlangan oilalarga 20 boshdan jami 26060 bosh tovuq, 750 kam ta'minlangan oilalarga 1 boshdan jami 750 bosh qoramol olib berildi. Bundan tashqari 710 nafar muxtoj nogironlar 171,4 mln so'mlik reabilitatsiya texnik vositalari va protez artapediya mahsulotlari bilan ta'minlandi. Yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlardan 358 nafari gazeta va jurnallarga obuna qilindi. 583 nafarining uy-joylari ta'mirlab berildi. Ushbu maqsadlar uchun 308 mln so'm miqdoridagi homiylik mablag'lari yo'naltirildi. Bu ishlarning barchasi viloyatda mavjud 1242 tafuqoralarning o'z-o'zini boshqarish organlari rahbarligi va bevosita ishtirokida amalga oshirildi<sup>27</sup>

Mahallaning aksariyatida aholini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiyalar tashkil etilgan va ular muntazam ish yuritib keladi. Komissiyaga uy va ko'cha boshilar, yo'lakboshilar obro'-ye'tiborli faollar, hokimiyat vakillari kiritilgan bo'lib, ular ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalarni aniqlaydilar, ularning talabini qondirish jamoatchilik nazoratida bo'ladi. Bu jarayon davlat tomonidan va homiylik tomonidan ajratilgan va boshqa mablag'larni maqsadli yo'naltirishga katta imkoniyat yaratadi.

Bulardan tashqari, har bir mahallada kam ta'minlangan oilalar ro'yxati va ular uchun hujjatlar jamlamasi tayyorlanadi. Ro'yxatga kiritilganlar tibbiy-ijtimoiy muassasalarda imtiyozli ravishda davolanadilar. Mahallalarda kam ta'minlanganlar bo'yicha olib borilgan bunday tadbirlar ajratilgan mablag'larni maqsadli yo'nalishda foydalanish, shuningdek boqimandalik holatlarining oldini

---

<sup>27</sup> Вилоят ҳокимлигининг жорий архиви. Вилоят ҳокими З.Т.Мирзаевнинг зиёлилар билан 2012 йил якунлари ва 2013 йил режалари юзасидан учрашуви маълумотлари. 10-саҳифа

olish imkoniyatini yaratadi.

Davlat hokimiyati bilan fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik va o'zaro bog'liqlik bilan cheklanib qolmaydi. Shu bilan birga fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalar: hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, turli soliqlar va majburiy kommunal to'lovlarni o'z vaqtida tushurishni ta'minlash, yoshlarni tarbiyalash, ularni harbiy xizmatga tayyorlashida ko'maklashish, turli huquqbuzarliklarning oldini olish, ommaviy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, sport tadbirlarini tashkil yetish va o'tkazishda mahalliy davlat hokimiyatiga yaqindan ko'maklashib kelmoqdalar. Davlat hokimiyati va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organi birga ishlaydi, biri ikkinchisini to'ldiradi, yagona siyosatni yuritadi.

Ayni vaqtda uy-joylarini yaxshilashga muhtojlarga, kam ta'minlangan fuqarolarga yordam ko'rsatish, jamoat tartibini saqlash, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish, yoshlar bilan ishlash masalalarini davlat siyosati va uning resurslarini ishga solmay amalga oshirib bo'lmaydi.

Shunday qilib, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish tizimi davlat boshqaruvi tizimidan o'ziga xos farqli tomonlari bor. Ammo ko'rinib turibdiki, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarishi va davlat boshqaruvi tizimining ko'pgina belgilari ularni birlashtirib turadi. Ijtimoiy boshqaruv shaklidagi ma'lum farqlar va ayni vaqtda ularning yagona maqsadi, o'zaro uzviy aloqalari asosida kelishgan holda faoliyat ko'rsatishlarini ta'kidlash kerak, bir qator tadqiqotchilar asosli ravishda «ommaviy boshqaruv» kategoriyasini qo'llashni taklif yetmoqdalar. Bu ommaviy boshqaruv tizimiga shunday ta'rif beriladi, “davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni yeng maqbul tarzda qo'shib olib borish – bu ijtimoiy boshqaruvning alohida, boshqalardan farq qiladigan boshqaruv turiga

bo'lgan yehtiyojidir”<sup>28</sup>.

«Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida fuqarolar o'zini-o'zi boshqarishni ye'tirof yetish va kafolatlash to'g'risidagi qoidani davlatdan alohida hokimiyat instituti sifatida davlat tomonidan berilgan ko'rsatma deb qabul qilmaslik kerak, balki ommaviy hokimiyatning ko'p bosqichli tizimi sifatida qayd yetish zarur, bu bosqichlarning ma'lum bir qismi fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish tizimi zimmasiga to'g'ri keladi, bu uning davlat tizimiga tegishli ayrim qismlaridan sifat jihatidan farq qilishini ko'rsatadi. Boshqaruvni amalga oshiradigan davlat tizimi va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish tizimi bir-biriga uzviy bog'liq, ularni sun'iy ravishda “davlat” va “jamoat” darajalariga keskin ajratish maqbul yemas.

Samarqand viloyat hokimligining 2012 yil 19 martdagi 06/3-142-sonli “Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi yig'ilish bayoni ijrosi yuzasidan Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida respublika boshqaruvidan kelgan “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi Nizami loyihasi”, “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi;

-taftish komissiyasi;

-xotin-kizlar bilan ishlash komissiyasi;

-yarashtirish komissiyasi;

-voyaga yetmaganlar, yoshlar, sport va sog'lomlashtirish masalalari bo'yicha komissiyasi;

-jamoatchilik nazorati va iste'molchilar xukuklarini himoya qilish komissiyasi to'g'risidagi, shuningdek, “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

---

<sup>28</sup> Бялкина Т.М. Местное самоуправление и государственное управление // Вестник ВГУ. Серия «Гуманитарные науки». 2003. №1. С. 322.

organlari huzuridagi xususiy tadbirkorlik, oilaviy biznes, kasanachilik, shaxsiy tomorqa xo'jaligi va chorvachilikni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiya to'g'risida", "Fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi faoliyati to'g'risida", "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmalari to'g'risida", "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot komissiyasi to'g'risida", "O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondining "Yeng namunali bo'linma"si tanlovini 2012 yilda o'tkazish to'g'risida", "Yeng namunali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari" tanlovini 2012 yilda o'tkazish to'g'risida", "Fuqarolar yig'ini to'g'risida", "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha komissiya to'g'risida"gi namunaviy nizom loyihalari hududlardagi fuqarolar yig'inlari faollari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida davra suxbatlari, yig'ilishlarda muhokama qilinib, yig'ilish bayoni hamda bildirilgan takliflar va fikr-mulohazalar umumlashtirib, respublika boshqaruvi taqdim etilgan.

Samarqand viloyatidagi shahar va tumanlardagi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga oid mavjud muammolarni hal yetish bo'yicha 2012 yilning 1-choragida amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar dasturi viloyat hokimi Z.Mirzayev tomonidan tasdiqlandi va O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi respublika boshqaruvi raisi A.Ahmedov tomonidan kelishildi. Dastur viloyatdagi bir qator hamkor tashkilotlar, jumladan: viloyat hokimligi xotin-qizlar qo'mitasi, viloyat ichki ishlar boshqarmasi, viloyat hokimligi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, madaniyat va sport ishlari boshqarmalari, "Kamolot" YoIH viloyat Kengashi va viloyat Kasaba uyushmasi kengashi rahbarlari tomonidan ham kelishildi va ular tomonidan imzolandi.

1-chorakka mo'ljallangan Dasturda belgilangan vazifalar ijrosi fuqarolar yig'inlari hamda hududiy bo'linmalar tomonidan ta'minlandi.

Viloyatdagi 2 ta shahar va 14 ta tuman bo'linmalarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga oid mavjud muommalarni hal yetish bo'yicha 2-chorakka mo'ljallangan dasturlari va ular asosida viloyat bo'limi boshqaruvining 2012 yil 2-chorakka mo'ljallangan dasturi ishlab chiqildi va u hududiy hokimliklar va viloyat hokimi tomonidan tasdiqlangan.

Viloyat hududida "Mahalla" xayriya jamoat fondining 1 ta na'munaviy hududiy bo'linmasi (Mahalla" xayriya jamoat fondi Kattaqo'rg'on shahar bo'linmasi) va har bir tuman (shahar) hududida 1 tadan na'munaviy qishloq (shaharcha) fuqarolar yig'ini, 2 tadan mahalla fuqarolar yig'ini shakllantirilgan.

Viloyatdagi mavjud 1094 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida to'y va marosimlarni tartibga solish maqsadida, shuningdek, mahalla faollari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish bo'yicha mahallaning obro'li fuqarolari – oqsoqollari va onaxonlaridan iborat 5-7 kishidan iborat jamoatchilik kengashlari tuzildi va ular joylarda samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Lekin, shunga qaramasdan Samarqand shahri, Samarqand, Pastdarg'om va Urgut tumanlarida to'y ma'rosimlar dabdababozlik bilan o'tkazilayotganligi kuzatilganligi keltirilgan.

Davlat organlari, tijorat banklari va boshqa ma'sul idoralar xodimlarining o'z faoliyati yo'nalishlari (huquq-targ'ibot, tibbiyot, iqtisodiyot, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar, yoshlar masalalari) bo'yicha o'zlari istiqomat qilayotgan mahallalarda yo'nalishlar bo'yicha doimiy komissiyalar tarkibiga birlashtirilgan.

"Mahalla" xayriya jamoat fondi viloyat bo'limi boshqaruvining 2012 yil 25 fevral kuni o'tkazilgan 2011 yil yakunlariga bag'ishlangan kengaytirilgan boshqaruv yig'ilishida mahallalardagi ijtimoiy ma'naviy muhit barqarorligiga salbiy ta'sir yetayotgan holatlar to'liq muhokama qilingan.

Samarqand shahri, Samarqand va Payariq tumanlarida 16-17 yoshli voyaga yetmagan qizlar tug'rig'i qayd yetilganligi ko'rsatib o'tilib, bunday holatlarning oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilab olingan.

2013 yilning 3 oyi mobaynida viloyatda notinch oilalar soni 2021 tadan 2012 taga kamaygan. Ammo, shunga qaramasdan Samarqand shahri hamda Ishtixon tumanlarida notinch oilalar soni o'sishi kuzatilgan. (Samarqand shaharida 402-419, Ishtixon tumani 108-136 taga oshgan).

Viloyatda diniy vaziyatni sog'lomlashtirish maqsadida fevral-mart oylarida barcha mahallalarda diniy yekstremizm va missionerlikka qarshi davra suhbatlari, IIB, diniy idora vakillari ishtirokida uchrashuvlar tashkil yetildi. Tadbir so'ngida "Jaholatga yeltuvchi yo'l", "Iztirob, yohud bir jangarining hotiralari" video filmlari namoish yetilgan.

Viloyatdagi mavjud 1094 ta mahalla fuqarolar yig'inlari huzuridagi asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning soni ixchamlashtirildi va ular soni 5-7 ta qilib belgilandi, jumladan bular:

1. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi taftish komissiyasi:
  1. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyasi:
  2. Xotin-qizlar bilan ishlash komissiyasi:
  3. Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot komissiyasi:
  4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash komissiyasi:
  5. Xususiy tadbirkorlik, oilaviy biznes, kasanachilik, shaxsiy tomorqa xo'jaligi va chorvachilikni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiya:
  6. Yekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish xamda ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyasi to'g'risida:
  7. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va jamoatchilik nazorati bo'yicha komissiya to'g'risida:

8. Voyaga yetmaganlar, yoshlar, sport va sog'lomlashtirish masalalari bo'yicha komissiya:

Bu komissiyalar tarkibiga ko'pni ko'rgan, ziyoli, hayot tajribasiga yega, fidoyi mahalla faollari kiritildi va ular joriy yilning fevral-mart oyidan samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

2012 yil yanvar oyida xalq deputalari Samarqand shahar Kengashida "O'zini o'zi boshqarish organlarida boshqaruv, ijro hokimi rahbarlarining hisobotlari to'g'risida"gi masala, 2012 yil 10 yanvar kuni xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani kengashida "Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish masalasi" hamda 2012 yil 28 yanvar kuni "Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga oid mavjud muammolarni hal yetish bo'yicha 2012 yilning 1-choragida amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlari dasturi ijrosi to'g'risida"gi masalalar, 2012 yil 6 yanvar kuni xalq deputatlari Payariq tumani kengashida "2011 yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturining tumandagi bajarilishi haqida"gi masala, 2012 yil 6 fevral kuni xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashida "Samarqand tumanida diniy vaziyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan umumprofilaktik tadbirlarni tashkil yetish va amalga oshirish to'g'risida"gi masala, 2012 yil 28 fevral kuni xalq deputatlari Oqdaryo tumani kengashida "Tumanda ijtimoiy xarakterga yega muammolarni yechish bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirish haqida"gi masalalar ko'rib chiqildi va kerakli chora-tadbirlar belgilab olingan.

Viloyatdagi mavjud 1242 ta fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining bugungi kundagi moddiy-texnik ta'minotini ta'minlash borasida viloyat bo'limi boshqaruvi tomonidan bir qator ijobiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, birgina 2011 yilda 335 ta fuqarolar yig'inlari kompyuter jamlamasi, 100 ta

fuqarolar yig'inlari mebel jihozlari bilan ta'minlandi. Fuqarolar yig'inlari zamonaviy binolar bilan ta'minlangandi.

2012 yilning 10 aprel holatiga ko'ra kompyuter jamalatasi bilan ta'minlanish holati 755 ta (+114ta)ni, mebel bilan ta'minlash 941 ta (+79ta)ni, binoni balansiga o'tkazish 741ta (+21)tani, boshqa tashkilotlar binosida joylashgan fuqarolar yig'inlari 232 ta (-4) ni tashkil yetgan.

Fondning viloyat bo'limi hamda 16 ta shahar va tuman bo'linmalarining moddiy-texnika ta'minoti talab darajasida yo'lga qo'yildi. Fondning barcha xodimlariga ishlashlari uchun qulay sharoit yaratilgan, kompyuter jamlamasi va mebel jihozlari bilan to'liq ta'minlangan.

2012 yil yanvar oyida xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashida "O'zini o'zi boshqarish organlarida boshqaruv, ijro hokimi rahbarlarining hisobotlari to'g'risida"gi masala, 2012 yil 10 yanvar kuni xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani kengashida "Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish masalasi" hamda 2012 yil 28 yanvar kuni "Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga oid mavjud muammolarni hal yetish bo'yicha 2012 yilning 1-choragida amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlari dasturi ijrosi to'g'risida"gi masalalar, 2012 yil 6 yanvar kuni xalq deputatlari Payariq tumani kengashida "2011 yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturining tumandagi bajarilishi haqida"gi masala, 2012 yil 6 fevral kuni xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashida "Samarqand tumanida diniy vaziyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan umumprofilaktik tadbirlarni tashkil yetish va amalga oshirish to'g'risida"gi masala, 2012 yil 28 fevral kuni xalq deputatlari Oqdaryo tumani kengashida "Tumanda ijtimoiy xarakterga yega muammolarni yechish bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni

yanada kuchaytirish haqida”gi masalalar ko’rib chiqilgan va kerakli chora-tadbirlar belgilab olingan.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishdagi yutuqlar ko’p jihatdan mahalliy davlat organlari izchil faoliyatining natijasi bo’ldi. Bu esa o’z navbatida Prezident I.A.Karimov va Respublika hukumatining sobitqadam siyosati bilan bevosita bog’liqdir.

## **2.2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari va aholi orasidagi ma'naviy- ma'rifiy faoliyati**

Mahalliy davlat boshqaruv organlarining ma'naviyat va madaniyat sohasida ham turli xil tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi madaniy me'ros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" gi qonun qabul qilinganidan so'ng yurtimizdagi ma'daniy meroslarimiz, tarixiy obektlarimizni muhofaza qilish keng ko'lamda yo'lga qo'yildi. Samarqand, buxoro, Xiva Toshkent va boshqa to'arixiy shaharlarimizni obodonlashtirish ishlariga katta e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Hayotimizning barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar samaradorligi shavvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy me'rosimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir.

Biz yoshlar oldmizda turgan eng muhim vazifalarimiz, milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berishimiz zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan, tarixning muhim sinovlaridan o'tgan, insonlarga og'ir davrlarida madad bo'lgan.

Bizning vazifamiz- shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boytishdan iborat. Tarixdan bizga ma'lumki, ko'p yillar davomida ma'rifat va madaniyatga noto'g'ri munosabatda bo'lishgan. Unga sarflangan mablag'lar doim boshqa sohalardan kam bo'lgan. Natijada biz bu masalalarda orqada qolib ketdik. Mustaqilligimizdan so'ng esa bu masala, ya'ni madaniyat va ma'rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy oldi. Ayniqsa olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tibor kuchaytirildi. Ularga g'amxo'rlik qilish samarali faoliyati uchun barcha zarur moddiy-ma'naviy sharoitlarni

yaratib berish davlat hokimiyati va xo'jalik tashkilotlari rahbarlarining zimmasiga yuklatildi.

“Ma'lumki o'zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy ma'naviy bog'liqlik til orqali namayon bo'ladi” – deb ta'kidlaydi I.A.karimov o'z ma'ruzalaridan birida<sup>29</sup>.

Ma'naviyatimizni, madaniyatimizni yuksaltirishda tarixiy obidalar, milliy an'analar va urf-odatlar katta ahamiyat kasb etadi. Bularni muhofaza qilishni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining “Madaniy meroslarni, obektlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida” gi qonuni qabul qilinib, uning 5-9 moddalarida madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish vazifalari belgilandi. Mahalliy davlat hokimiyati organlariga madaniy meros obektlarini aniqlash, ularni hisobga olish, muhofaza qilish, asrash, madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash vazifalari yuklatildi. Bundan tashqari ushbu qonunda fuqorolarning o'zini-o'zi boshqarish va jamoat birlashmalarini madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, ulardan to'g'ri foydalanish va turli xil obektlarni o'tkazishga jalb etish ham ko'zda tutildi<sup>30</sup>.

Madaniy va ma'rifiy tadbirlar orasida Rim tengdoshi bo'lgan Samarqanda har ikki yilda o'tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festevali alohida ahamiyatga ega.

Dunyo shaharlari orasida o'zining hamisha qadimiy zarvorli tarixiga ega bo'lib kelgan insoniyat hayot bulog'ini goh alangalatib, goh sundirib, goh jangu jadallar bilan, goh yuksak ilm-fan va madaniyat sohalarini yuqori cho'qqisida markaz bo'lib kelgan Samarqand bugungi kunda yanada navqiron, go'zalliklarga burkangan maskanlardan biridir.

---

<sup>29</sup> I.A.Karimov “Юксак маънавият-енгилмас куч”. Т.2008.76-83 бетлар.

<sup>30</sup> Каримов Д.А.Мирокулов М.М. “Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ҳуқуқий асослари”. Т.2009 йил 174 бет

Hozirgi kunda tarix va o'tmish haqida guvohlik beruvchi bu shahar yangicha falsafiy dunyoqarashga asoslangan tarixiy haqiqatni va estetik qiyofani o'zida mujassam ettirmoqda. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida olib borilayotgan islohatlar shaharning qadimdan buyuklar maskani bo'lganligi, ajdodlarimizning bizgacha qoldirgan estetik madaniyatlarining mahsuli ekanligini, uning kelajak avlod uchun obod qilishga mas'ulligimizni ko'rsatib turadi. Ayniqsa mustaqillik mevasi sifatida butun dunyo xalqlarining madaniyat va san'atga bo'lgan qiziqishlarini o'zida birlashtirgan sharq madaniyatining mumtoz taronalarini nafosat shaydolariga to'ldirgan Samarqandda har ikki yilda bir marta o'tkazilib kelmoqda.

Jahon sivilizasiyasining beshiklaridan biri – deb e'tirof etadi Prezidentimiz I.A.Karimov-turli madaniyatlar tutashgan bu husninkor shaharda asos solingan “Sharq taronalari” musiqa festevali xalqaro maydonda e'tibor qozonib, nafaqat Sharq balki g'arb dunyosidagi ko'plab san'at nomayondalarini o'zida jalb etayotganligi, uning qisqa muddat ichida ajoyib an'ana va katta nufuzga ega bo'lib borilayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga bu festeval jahon aholisning o'zaro madaniy munosabatiga bo'lgan hayotiy ehtiyojini har bir xalq, har bir millat ruhida azaldan yashab kelayotgan yaxshilik, go'zallik va nafosatga intilish hissini ro'yobga chiqarishda beqiyos vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Alohida ta'kidlash lozimki festevalning asosiy tashkiliy ishlari Samarqand viloyati va shahar hokimlari va hokimliklari zimmasiga yuklangan bo'lib, bu hokimliklarga berilgan katta ishonchdan dalolat beradi<sup>31</sup>.

Dunyo xalqlarini o'zida mujassam etgan bu festeval mamlakatlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni birlashtirgan buyuk ipak yo'lining Samarqandda tutashganligining isboti sifatini shaharning davomiyligi, abadiyligi, izchilligi va naqadar ulug'ligini namayon qiladi.

---

<sup>31</sup> И.А.Каримов “Шарқ тароналари” 3-халқаро музика фестивали катнашчилари ва меҳмонларига Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10.Т.2002 24 бет

Samarqand shahrining 2750 yilgini o'tkazishga Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan alohida e'tibor berilganligi va 2006 yil 25 iyuldagi "Samarqand shahrining 2750 yilgini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" gi qarorining qabul qilinishi va shaharning yanada ko'rkamlashishiga ayniqsa tarixiy obidalarni, ulug' siymolarni abadiy qo'nim topgan maskanlarini obod qilishga katta hissa qo'shdi. Shaharning barcha ma'muriy obidalari mohir ustalar tomonidan naqshinkor gullar bilan bezatildi, yo'llar tekis va ravon qilib qaytadan ta'mir qilindi va hozirda ham bu obodonlashtirish ishlari keng ko'lamda davom ettirilmoqda, istirohat bog'lari va dam olish maskanlari yubiley tantanalari uchun yangicha qiyofa kashf etdi.

Samarqandning dunyo xalqlarini o'zida mujassam etgan buyuk markazlardan biri ekanligini, undagi ilm-fan ravnaqi va islomiy qadriyatlarni keng miqyosda rivojlantirilganligini yurtimizning bir qator tarixchi olimlari tadqiqotlarida isbot etmoqdalar.

Mustaqillik yillarida milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati rivojlandi. Respublika Madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan „Xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika markazi“, markazning viloyatlardagi bo'limlari musiqa va qo'shiqchilik san'atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko'rik-tanlovlar, festivallar tashkil etmoqda. Tashkil etilayotgan ko'rik tanlovlarda Samarqand viloyati jamoasi ham ishtirok etib sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqdalar.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 5-dekabrda „O'zbekiston - Vatanim manim" qo'shiqlar bayrami to'g'risida"gi farmoni qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1996-yil ko'rik tanlovini o'tkazish barcha viloyat, shahar va tumanlarida „O'zbekiston - Vatanim manim" qo'shiq tanlovining birinchi bosqichi bo'lib o'tgan edi. Unda

Samarqand viloyati jamoasi ham ishtirok etib o'zlarining mahoratlarini ko'rsatgan edilar.

1997-yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining „Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida" Qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturulamal bo'lib xizmat qildi. 1997-yil 25-avgust - 2-sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan „Sharq taronalari" birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san'ashunoslar, jamoat arboblari ishtirok yetdilar, festivalda yangragan o'zbek ohanglari, kuy-qo'shiqlari jahon uzra aks-sado berdi. Ozarbayjonlik Simara Imonova oliy mukofot- Granpriga sazovor bo'ldi. 1-o'rin Munojot Yo'lchiyeva va hindistonlik Shainu Khulanaga nasib etdi. Har ikki yilda Samarqandda „Sharq taronalari" Xalqaro festivalini o'tkazish an'anaga aylandi.

Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, aholida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

1992-yilda Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz Hojixon Boltaboyev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi shuningdek oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi<sup>32</sup>.

Ommaviy axborot vositalari xalqqa ilmiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy bilimlar, ma'lumotlar tarqatuvchi manbadir. Ular tarkibiga gazeta va jurnallar, radio va televideniye hamda boshqa axborot tarqatuvchi vositalar kiradi. Sobiq Ittifoq davrida ommaviy axborot vositalari

---

<sup>32</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Тошкент. 2009 йил 185-186 бетлар

to'la davlat monopoliyasiga olingan bo'lib, kommunistik mafkura quroliga aylantirilgan, milliy zamindan uzilgan edi.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalariga munosabat o'zgardi. Avvalo ularning huquqiy asoslarini yaratish tadbirlari ko'rildi. O'zbekiston Konstitusiyasining 67-moddasiga ko'ra, ommaviy axborot vositalari erkin va qonunga muvofiq ishlaydi. 29-moddasida esa har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitusiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno, deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida 1997-yil 24-aprelda „Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida“ va „Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida“, 1997-yil 26-dekabrda „Ommaviy axborot vositalari to'g'risida“ Qonunlar qabul qilindi. Davlat organlari, muassasalar, tashkilotlarning mansabdor shaxslari senzurani amalga oshirganlik, jurnalistga tazyiq o'tkazganlik, uning professional faoliyatiga aralashganlik uchun javobgar bo'lishlari qonunan mustahkamlab qo'yildi. Ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishni ta'minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida tuzilgan Axborot markazi, Milliy matbuot klubi ommaviy axborot vositalariga moddiy jihatdan ko'maklashmoqda. Respublika Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra 1996-yil avgust oyida ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil yetildi. Respublika Prezidentining 1997-yil 7-maydagi „O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida“ gi farmoniga ko'ra O'zbekiston Davlat televideniye va

radioeshittirish qo'mitasi O'zbekiston teleradiokompaniyasiga aylantirildi va uning joylarda hududiy bo'linmalari tuzildi<sup>33</sup>.

Jumladan Samarqand viloyati telivideniyasi faoliyati ham takomillashtirildi. Bugungi kunda viloyat telivideniyasi viloyatimizda va dunyo yangiliklarini doimiy ravishda baxobar qilib bormoqda.

Mustaqillik yillarida respublika ommaviy axborot vositalarining soni ko'paydi, sifati yaxshilandi. 1990-yilda 376 nomda gazeta va jurnallar chop etilgan bo'lsa, 2010-yilda ommaviy axborot vositalari va elektron ommaviy axborot vositalari soni 1200 taga yetdi. 4 ta axborot agentligi, 55 ta nashriyot, 100 ga yaqin davlat va nodavlat teleradiostudiyalari va uning hududiy bo'linmalari faoliyat ko'rsatdi. Ko'pmillatli O'zbekiston Respublikasida gazetalar, jurnallar, teleradiostudiyasi 12 tilda - o'zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq va boshqa tillarda chop etilmoqdi. Jumladan Samarqand viloyatining quyidagi matbuot nashrlari faoliyat ko'rsatmoqda. "Zarafshon" gazetasi, "Samarqand" gazetasi, "Samarkandskiy vestnik", "Xavor", "Samarqand" gazetasi kabi o'ndan ortiq matbuot nashrlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu matbuot nashrlari ham o'zbek ham rus tilida nashr etilmoqda. Ularning faoliyatini takomillashtirish borasida bizr qator chora tadbirlar amalga oshirildi. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan matbuot nashrlari jahon yangiliklari va viloyatda amalga oshirilayotgan islohatlar va yangiliklardan xabardor qilib bormoqda.

Samarqand boy tarixiy va madaniy merosga ega shahar. Turli davrlarda bu yerda jahon mumtoz adabiyotining namoyandasi Rudakiy va olim hamda shoir Umar Xayyom, kalom ilmining asoschisi Abu Mansur Motirudiy va fiqx ilmining bilimdoni Burxoniddin Marg'iloniy, naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi Xo'ja Axrori Valiy, she'riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiylar yashab ijod etdilar, davlat va jamoat arboblari F.Xo'jayev va Sh.Rashidovlar

---

<sup>33</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Т. 2009 йил 221-223 бетлар

kamol topdilar, hadis ilmining buyuk bilimdoni Ismoil Chelakda dafn qilingan al-Buxoriyning otasidir, u kishining asl ismi Muhammad b'lishi kerak, Ismoil al Buxoriy Samarqand yaqinida abadiy qo'nim topgan. Tarixiy manbalarda Samarqandda Balxiy, Damashqiy, Bag'dodiy, Nishopuriy, Astrobodiy, hamadoniy, Buxoriy, Nasafiy, Marvaziy, Xo'jandiy, Marg'inoniy, Axsikati, Dobusiy, Termiziy, Shoshiy taxallusli yuzlab allomalar yashab ijod qilganliklari va shu yerda dafn etilganliklari qayd etiladi. Turkiston jadidlarining yo'lboshchisi, istiqlol uchun tolmas kurashchi Mahmudxo'ja Behbudiy va mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov shu yurt farzandlaridirlar. Shoir va yozuvchilar hamid Olimjon va Sadridin Ayniy, akademiklar Ibrohim Mo'minov va Yah'yo G'ulomov, Vohid Abdullayev va Akbar Otaxo'jayev, Botirxon Valixo'jayev va Yuriy Buryakov, professorlar Mavlon Jo'rakulov va Temur Shirinovlar singari ko'plab olimlar Samarqand ilm-fani va madaniyatini XX- XXI asr boshida dunyo miqyosiga olib chiqdilar. Ana shuning uchun ham Samarqand Sharqda uyg'onish davrini boshlab bergan markazlardan biri, obrazli qilib aytganda, uning o'ziga xos durdonasi hisoblanadi. YUNESKONing 2001 yil Finlyandiyada o'tkazilgan 25 sessiyasida Samarqand me'moriy-tarixiy yodgorliklarning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilganligi bejiz emas. Zero shahar hududida 73 ta yirik tarixiy-me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan.

Samarqand hozirgi paytda halqaro turizm rivojlangan shaharlardan biridir. Sayyohlar xizmatida «o'zbekturizm» milliy kompaniyasining Samarqand bo'limi, bir qator xususiy sayyohlik agentliklari, «Afrosiyob», «Prezident-otel» kabi zamonaviy hamda ko'plab xususiy mehmonxonalar, bir qator istirohat bog'lari hamda sport inshootlari mavjud

Azaldan tadbirkorligi bilan olamga tanilgan samarqandliklar uchun istiqlol katta imkoniyatlar yaratdi. Shaharda mayda va o'rta biznes jadal rivojlanmoqda. Samarqand respublika avtomobilsozlik sanoatining markazlaridan biriga

aylandi. hozirgi paytda Samarqandda 7 ta oliy o'quv yurti, ko'plab kollej va liseylar, 3 ta teatr, 7 ta muzey, 4 ta ilmiy-tadqiqot instituti, YUNESKOning Markaziy Osiyoni o'rganish xalqaro instituti, O'zRFA mintaqaviy bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Imom al-Buxoriy, Abu Mansur Moturidiylarning muborak to'ylari keng nishonlandi. Yurt boshimizning bevosita tashabbuslari bilan har yili 18 oktyabrda Samarqand shahri kuni nishonlanib kelinmoqda.

«Samarqand nafaqat muqaddas obida va betakror tarixiy mo'jizalari, balki zamonaviy ishlab chiqarish salohiyati bilan, eng qimmatli boyligi – bag'ri keng, qalbi go'zal mehnatkashlari bilan butun dunyoda mashhur», - degan edilar Respublika Prezidenti I.A.Karimov 1996 yili Samarqand shahriga Amir Temur ordenini topshirish chog'ida so'zlagan nutqlarida. Mustaqillik davrida shahar alohida nufuzga ega bo'ldi. Yuqorida ta'kidlanganidek, jahon sivilizasiyasining markazlaridan biri bo'lgan Samarqand bundan keyin ham o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy va madaniy salohiyati bilan xalqimizga xizmat qilaveradi.

Samarqand viloyati mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarligida viloyatda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy sohalardagi ishlar mazmuni zamon talablariga hamohang ravishda o'zgarib, rivojlanib bordi.

## XULOSA

O'zbekistonda XX asrning 90 yillari boshlarida mavjud bo'lgan hokimiyat tizimi, jumladan mahalliy hokimiyat tizimi SSSRda shakllangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining tarkibiy qismi bo'lib, KPSS qarorlarini hayotga tadbiiq etishga yo'naltirilgan va partiyaning ta'sir doirasiga to'lasincha olingan muassasalardan tashkil topgan tizimga aylangan edi. Bu tizim buyruqni ijro etishga moslashgan tizim sifatida masalalarga ijodiy yondashishni talab qiladigan, bozor munosabatlari o'rnatilgan, demokratlashtirish, liberallashtirish jarayonlari kuchaygan yangi davr talablariga umuman javob bermas edi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlangan keng ko'lamdagi islohotlarning maqsadi mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, ochiq huquqiy demokratik davlatchilikni barpo etishni talab qildi. Bu boshqa tizimlar qatori mahalliy davlat hokimiyati tizimida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirishni, xalq manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yadigan, aholi eng zarur ehtiyojlarini qondira oladigan muassasalarni shakllantirishni taqoza etardi

Mustaqillikning dastlabki oylaridayoq joylardagi mahalliy hokimiyat organlarini yangi asosda shakllantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra vakillik organining kollegiallik, ijroiya hokimiyatining yakkahokimlik va shaxsiy javobgarlik tamoyillari asosida shakllantirildi.

1992 yil 4 yanvarda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi mamlakatimizda mahalliy davlat hokimiyati organlarini qayta tashkil etish haqida konstitusiyaviy qonun qabul qildi<sup>34</sup>. Bunda bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik huquqiy davlatni qurishning o'ziga xos jihatlari e'tiborga olinib, o'tish davri talablaridan kelib chiqib, avvalo ijroiya hokimiyatini mustahkamlash nazarda tutilgan edi.

---

<sup>34</sup> В.Тюриков, Р.Шоғуломов Мустақил Ўзбекистон Республикаси. Т., Ўзбекистон, 1998, 17 б.

1992 yil aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham hokimlik lavozimini joriy etish borasida qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XXI-bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari deb nomlangan. Konstitusiyaning **99-moddasiga** ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Respublikada davlat hokimiyati barcha organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar bazasi vujudga keldi. Ular markaziy, viloyat, shahar va rayonlar darajasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv funksiyalarini aniq kilib belgilab berdi. Bu mustaqil milliy davlatchiligimizni ta'minlovchi muhim shartlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish bo'lsa, ikkinchi vazifa respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining tizimini yaratish edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning, yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmay, degan ko'rsatmalariga amal qilib, vakillik organlarining viloyat, tuman va shahar bo'g'inlari saqlanib qolindi.

Natijada viloyatlar, tumanlar va shaharlarda vakillik organlari bo'lmish Xalq deputatlari Kengashlariga xalqning munosib farzandlari saylandilar.

Shuningdek tadqiqotda Samarqand viloyati mahalliy davlat hokimiyati organlarining keng ko'lamdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarini amalga oshirishdagi roli bu islohatlarning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga

o'tishdagi ahamiyati yoritilgan. Jumladan mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohatlar natijasida eng muhim yo'nalish bu makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi. Bu esa o'z navbatida chuqur tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab qildi. Respublika iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, importni qisqartirish, eksportga va ichki bozorga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, shuningdek istiqbolni belgilaydigan ustivor tarmoqlarni jadal rivojlantirish, tarmoqlar ichidagi nomutonositlikka barham berishga e'tibor qaratildi. Viloyat miqyosida amalga oshirilgan tadbirlar, butun respublikamizda bo'lgani kabi 1996 yildayoq iqtisodiyotimizdagi barqarorlikni ta'minladi.

Chet el investisiyalari va kredit mablag'larining jalb qilinishi viloyat sanoatida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi

Viloyatda turli dasturlar doirasida yirik sanoat korxonalarini qayta tiklash, ularning quvvatlarini oshirishga alohida e'tiborga qaratildi. Viloyat tashqi iqtisodiy faoliyatida ham izchil o'zgarishlar kuzatildi. 2005 yilda viloyatda qo'shma korxonalar soni 150 ta bo'lsa, 2013 yil boshiga kelib ular 228 tani tashkil qildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. 2013 yil boshida viloyatda 22568 ta turli xildagi xizmat ko'rsatish va servis sohalari faoliyat ko'rsatdi. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar ham o'z samarasini berdi. Kolxozlar o'rniga dastlab ijara va dehqon xo'jaliklari tuzildi. Keyinchalik fermerlik harakati rivojlana boshladi. 2000 yillarning boshlarida viloyatda 19116 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatdi. 2008 yilda o'tkazilgan optimizatsiya natijasida fermer xo'jaliklarning soni 11393 taga kamayib, 7723 tani tashkil qildi.

Viloyatda aholi uchun uy-joy qurilishiga katta e'tibor berilmoqda. 2009-2011 yillarda na'munaviy loyihalar asosida 1405 ta uy joy qurildi. 2012 yilda

Samarqand shahrida 384 xonadonga mo'ljallangan 12 ta ko'p qavatli uylar qurilishi boshlandi. Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlarida, tumanlar markazlarida katta obodonchilik ishlari amalga oshirildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishdagi yutuqlar ko'p jihatdan mahalliy davlat organlari izchil faoliyatining natijasi bo'ldi. Bu esa o'z navbatida Prezident I.A.Karimov va respublika mhukumatining sobitqadam siyosati bilan bevosita bog'liqdir.

Mahalliy davlat boshqaruv organlarining ma'naviyat va madaniyat sohasida ham turli xil tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi madaniy me'ros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" gi qonun qabul qilinganidan so'ng yurtimizdagi ma'daniy meroslarimiz, tarixiy obektlarimizni muhofaza qilish keng ko'lamda yo'lga qo'yildi. Samarqand, Buxoro, Xiva Toshkent va boshqa tarixiy shaharlarimizni obodonlashtirish ishlariga katta e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy me'rosimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'naviyatimizni, madaniyatimizni yuksaltirishda tarixiy obidalar, milliy an'analar va urf-odatlar katta ahamiyat kasb etadi. Madaniy va ma'rifiy tadbirlar orasida Rim tengdoshi bo'lgan Samarqandda har ikki yilda o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festevali alohida ahamiyatga ega.

Jahon sivilizasiyasining beshiklaridan biri – deb e'tirof etadi Prezidentimiz I.A.Karimov-turli madaniyatlar tutashgan bu husninkor shaharda asos solingan "Sharq taronalari" musiqa festivali xalqaro maydonda e'tibor qozonib, nafaqat

Sharq balki g'arb dunyosidagi ko'plab san'at nomayondalarini o'zida jalb etayotganligi, uning qisqa muddat ichida ajoyib an'ana va katta nufuzga ega bo'lib borilayotganligidan dalolat beradi.

Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, aholida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

1992-yilda Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz Hojixon Boltaboyev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi shuningdek oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi

Samarqand viloyati mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarligida viloyatda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy sohalardagi ishlar mazmuni butun respublikamizda bo'lgani kabi zamon talablariga hamohang ravishda o'zgarib, rivojlanib bordi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati:**

1. Каримов И.А. “Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т. “Шарқ”. 1998
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: «Ўзбекистон»,1997
3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли.-Т.: «Ўзбекистон», 1992
4. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз.Т7.-Т.: Ўзбекистон, 1999.
5. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин.Т 2.Т.:Ўзбекистон, 1996.
6. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.Т 3.Т.: Ўзбекистон,1996.
7. Каримов И.А. “Шарқ тароналари” 3-халқаро мусиқа фестивали катнашчилари ва меҳмонларига Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10.Т.2002 24 бет
8. Каримов И.А. “Юксак маънавият-енгилмас куч”. Т.2008.76-83 бетлар.
9. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз- жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. - Т.: Ўзбекистон, 2005.
10. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т 4.Т.: Ўзбекистон, 1996.
11. Каримов И.А. Мамлакатимиз тараққиёти ва халқимизнинг ҳаёт даражасини юксалтириш-барча демократик янгиланиш ва иқтисодий ислохотларимизнинг пировард мақсадидир. –Т.: Ўзбекистон. 2007. Б.100.
12. Каримов И.А. “Бош мақсадимиз-кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъий билан давом еттириш”. Халқ сўзи, 2013 йил 19 январ

13. Каримов И.А. “Инсон манфати, ҳуқуқ ва еркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада еркин ва зобод бўлишига еришиш-бизнинг бош мақсадимиздир” Халқ сўзи, 2012 йил 8 декабр
14. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т1.–Т.: Ўзбекистон, 1996.
15. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.Т6.-Т.: Ўзбекистон, 1998.
16. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак.Т10.-Т.: Ўзбекистон, 2002.
17. Каримов И.А. Янгича ишлаш ва фикрлаш давр талаби. Т.5-Т.: Ўзбекистон, 1997.
18. Каримов И.А.. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболнинг асосий тамойиллари. Т.: Ўзбекистон, 1995
19. Каримов И.А.Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ.Т12. - Т.: Ўзбекистон, 2004.
20. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг кўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. – Т.: «Ўзбекистон», 2010. Б.45.
21. Авакьян С.А. Конституционное право России: Учебный курс. Т. 1. М., 2006.
22. В.Тюриков, Р.Шоғуломов Мустақил Ўзбекистон Республикаси. Т., Ўзбекистон, 1998.
23. Вилоят ҳокимлигининг жорий архиви. Вилоят ҳокими З.Т.Мирзаевнинг зиёлилар билан 2012 йил якунлари ва 2013 йил режалари юзасидан учрашуви. 1-саҳифа

24. Вилоят ҳокимлигининг жорий архиви. Вилоят ҳокими З.Т.Мирзаевнинг “Иқтисодий барқарорлик, ижтимоий фаоллик фаравонликни таъминлайди” мавзусидаги 2012 йил 2 февралдаги маърузаси 1-2 бетлар
25. Жалилов Ш. Давлат ҳокимияти маҳаллий органлари ислоҳоти, тажриба ва муаммолар.- Т.: Ўзбекистон, 1994.
26. Каримов Д.А.Мироқулов М.М. “Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ҳуқуқий асослари”. Т.2009 йил 174 бет
27. Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Т. 1993 йил 2-сентябр
28. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т., “Шарқ”, 2000
29. Пронин Э.А. Политология. Конспект лекций. –М.: МИЭМП, 2005. С.7.
30. Тўлаганов А.Т. Давлат ҳокимиятининг вакиллик ва ўзини-ўзи бошқариш органлари фаолиятини ташкил этиш Т.: 2002.
31. Тўлаганов А.Т. Давлат ҳокимиятининг вакиллик ва ўзини-ўзи бошқариш органлари фаолиятини ташкил этиш Т.: Университет,1996.
32. Умарова Г. Маҳалла – ижтимоий бошқарув органи // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2-3/2007. Б.78.
33. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2012.
34. Хусанов О.Т. Ўзбекистон Республикасининг давлат ҳокимияти вакиллик ва ижроия ҳокимияти органлари.-Т.:Университет,1994.
35. Хусанов О.Т.Мустақиллик ва маҳаллий ҳокимият.- Т.: Шарқ, 1996.
36. Чулиев А.Б. Ўзбекистон Республикасининг вакиллик ва ўзини-ўзи бошқариш органлари фаолиятини ташкил этиш Т., 2003.
37. Чулиев А.Б. “Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятини ташкил этиш” фанидан маъруза матнлари.- Т., 2006.